

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI

TARIX YO'NALISHI

TESHABOYEV ABBOSJON XOLDORJON O'G'LI

**FARG'ONA VILOYATI MUZEYLARI TARIXI (SOVET DAVRI VA
MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA)**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Sh.To'lanboyev

NAMANGAN – 2019

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
 I BOB. O'ZBEKISTONDA MUZEYLARNING TASHKIL ETILISHI TARIXI VA FAOLIYATI.....	 7
1.1. Farg'ona viloyatidagi muzeylarning tashkil etilishi va uning faoliyati.....	7
1.2. Sovet davrida Farg'ona viloyatidagi muzeylarning moddiy- texnik ta'minoti va muzey fondlarining boyitilishi.....	15
 II BOB. FARG'ONA VILOYATI MUZEYLARI	27
MUSTAQILLIK YILLARIDA.....	
2.1. Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi.....	27
2.2. Qo'qon shahar madaniyati va tarixi davlat muzeyi.....	41
2.3. Marg'ilon shahar madaniyati va tarixi davlat muzeyi.....	54
 XULOSA.....	60
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	62

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek xalqi o'zining boy va qadimiy tarixini qaytadan kashf etish imkoniga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov o'rinli ta'kidlaganidek, "Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va izzatoblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi"¹ degan gaplari dastlabki yillarda o'z isbotini topdi. Bundan tashqari, Birinchi Prezident I. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q asarida", "Ma'naviyatni tiklash, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak"² deb ta'kidlaganlar. 'Biron-bir jamiyat, - deb ta'kidlaydi Islom Karimov, - ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"³.

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ma'naviyat va ma'rifatdir. Manaviy barkamollikini tarbiyalashda muzeylarni o'rni muhimdir. 'Manaviyat, - deb yozadi Islom Karimov- o'z xalqining tarixini, uning madaniyatini va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi'. Bunday tarixga bo'lgan e'tibor keying davrlarda ham rivojlanib bordi. "O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz"⁴.

Mana shu sinovlarga boy o'tmish, mana shu so'nmas madaniyat o'zbek xalqini buyuk va yorqin kelajak sari odim qadam tashlashga, qiyinchilik va sinovlarni yengib o'tishga undaydi, mushtarak maqsadlar yo'lida birlashtiradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev aytganlaridek:

¹ Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 97.

² Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998. – Б. 10.

³ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 137.

⁴ Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 5.

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to‘siq va sinovlarni o‘z kuchi va irodasi bilan yengib o‘tishga qodir, deb baralla aytishga to‘la asos beradi”⁵.

O‘zbekistonda muzeylarga e‘tibor mustaqillik davrida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligidir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ‘Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi 1994-yil 23-dekabrdagi 618-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1998-yil 12-yanvarda qabul qilingan “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 31-maydagi “Ma‘daniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3022 sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi “2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-sonli qarori va “Muzeylar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni muzey ishida huquqiy-me‘yoriy asoslarini mustahkamlash va tub o‘zgarishlar yasash, yangilarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Sovet davrida yig‘ilgan tariximizga oid materillarni yoritishdagi ahamiyati va tariximizga bo‘lgan munosabatni to‘g‘ri tahlil etish va bu materiallarga tayangan holda tegishli xulosalar chiqarishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o‘rganilganlik darajasi. O‘rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona viloyati muzeylari haqidagi qimmatli ma‘lumotlar G. P. Ivanov “Farg‘ona o‘lkashunosligi” kitobida Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining yaratilish tarixi va Farg‘ona viloyati hududida joylashgan boshqa me‘moriy obidalar tarixini o‘rganishda kitob asosiy qo‘llanma vazifasini bajaradi⁶. Muhammad Yahyoxon Ho‘qandiyning “Xudoyorxon o‘rdasi” kitobida O‘rdaning vujudga kelishi tarixi va u yerda

⁵ Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 7.

⁶ Иванов Г. П. Фарғона ўлкашунослиги. – Фарғона, 1996. – Б. 12.

saqlanayotgan eksponatlar, muzeyning bo'limlari va fondlarining tashkil etilishi tarixi haqida ma'lumotlar mavjud⁷. Bundan tashqari, A. Xo'jayev, N. G'ofurov, R. Reyimbayev, G. K. Karamanovalarning kitoblarida Farg'ona viloyatidagi muzeylar faoliyati batafsil yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi: Tadqiqot uchun davriy chegara sifatida sobiq Ittifoq davri ya'ni, 1917-yildan to hozirgi kunga qadar Farg'ona viloyati hududida tashkil etilgan o'lkashunoslik, maktab va uy muzeylarni tashkil etilishi hamda mustaqillik yillarida ushbu muzey maskanlarini tarixiy, ijtimoiy – madaniy faoliyatlari qamrab olingan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Farg'ona viloyatidagi muzeylar tarixi va faoliyatini o'rganishdir. Mazkur tadqiqotda quyidagi vazifalarni yechish ko'zda tutilgan:

- Farg'ona viloyatida muzeylarning tashkil topish tarixi, ularni tashkil etishda mahalliy to'plovchi-yig'uvchilarning o'rni masalasini ko'rib chiqish;
- muzeyga to'plangan ashyolarning mazmun va ma'no jihatdan umumlashtirilishini o'rganib chiqish;
- muzeyning vazifalarini ko'rsatib berish;
- muzeylar tuzilishi uslubiyati, muzeylarning yig'uv-to'plov, ilmiy-sharhlov hamda noshirlik faoliyatining ilmiy asoslarini tahlil qilish;
- muzey xazina fondida saqlanayotgan noyob, nodir eksponatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rnini ko'rsatish;
- muzeylarning bugungi kunda O'zbekiston tarixi va madaniyatining kam o'rganilgan hamda dolzarb muammolarini hal etishda qo'shayotgan hissalarini ko'rsatish;
- muzeyning fondlarini tashkil etish uslublari va eksponatlarni saqlash va u yerda saqlanayotgan nodir va noyob eksponatlarni o'quvchi yoshlar tarbiyasidagi o'rnini ko'rsatish;

¹⁴ Дадабоев Й. Х. Худоёрхон ўрдаси. – Наманган, 2016.

- muzeylarni milliy ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish vositasi sifatidagi roli va o'rnini ko'rsatib berish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti va predmeti. Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi, Marg'ilon shahar madaniyati va tarixi davlat muzeyi, Qo'qon shahar madaniyati va tarixi davlat muzeyi, Farg'ona viloyati tumanlarida faoliyat yuritgan uy muzeylarining tarixi va faoliyati bo'yicha Farg'ona viloyati tumanlarida faoliyat yuritayotgan uy muzeylarining arxiv fondi tadqiqotimizning ob'yekti va predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida qayd etilgan takliflar, ishlab chiqilgan xulosalar Farg'ona viloyatidagi muzeylar holatlarini yaqqol tasavvur etishga imkon beradi. Bitiruv malakaviy ishida ilmiy xulosalar O'zbekiston tarixining mazkur davr bo'yicha mavjud bo'shlig'ini to'ldiradi. Tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar ilmiy asosga ega bo'lib, asosiy xulosa va tavsiyalari muzeylar faoliyatini takomillashtirishda, uning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan muzey ishida, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tizimida ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, ta'lim jamoasida hamda darsliklar, o'quv - uslubiy qo'llanmalar, ilmiy risolalar yozishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarni inobatga olgan holda kirish, ikkita bob va beshta bo'lim, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Bitiruv malakaviy ishining hajmi 63 betni tashkil etdi.

I BOB. O'ZBEKISTONDA MUZEYLARNI TASHKIL ETILISHI TARIXI VA FAOLIYATI

1.1. Farg'ona viloyatidagi muzeylarning tashkil etilishi va uning faoliyati

O'zbekiston kelajagi buyuk davlat bo'lganidan keyin uning xalqi ham madaniyatli, ma'naviyatli bo'lishi uchun prezidentimiz bir qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Ma'naviyatli odam o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Uni shakllantirish, tarbiyalash va etuklik darajasiga ko'tarish lozim bo'ladi. Ma'naviyatimizni barkamol etishda muzeylarning katta sharaflari va mas'uliyatli o'rnini bor. Ular xalqimiz, xususan beg'ubor yosh qalblarga ma'rifat, poklik, chin insoniylik, mehnatsevarlik urug'larini ekishlari lozim. Toki bu qalblar imon nuri bilan, mustaqil ozod diyorumizga chin sadoqat nuri bilan munavvar bo'lsin. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I. A. Karimov 'Ma'naviyat va ma'rifatni targ'ib qilish har bir ziyolining vazifasidir'⁸ deb ta'kidlagan edi.

1917-yil oktyabrda Peterburgda Lenin boshliq bolsheviklar davlat to'ntarilishi yo'li bilan hokimiyat tepasiga keldilar va o'zlarining hokimiyat organlarini o'rnatib boshladilar. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan bu hol Rossiyaning mustamlakasi bo'lgan Turkistonda ham ro'y berdi. Bu hol muzeylar sohasida ham ro'y berdi.

Insoniyat qadim zamonlardan o'zining ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlarga qoldirish usullarini yaratgan. Muzey esa madaniy tajribani to'plash, tavsiflash va saqlashning eng maqbul yo'li bo'lib qoldi. "Muzey" atamasi Italiyada XVI asrdan taomilga kiritilib, faqat XIX asr boshlarida turli xildagi muzey muassasalari uchun umumiy, yaxlit nomga aylandi⁹.

Bolsheviklar hukumati quyidagilarni nazarda tutuvchi tadbir ishlab chiqildi:

- hozirda amal qilib turgan muzeylarni ro'yxatga olish va tarqalib ketgan muzey kolleksiyalarini yig'ish;

¹⁵ Nabiyeu X. Ma'naviyatimiz saboqlari. – Namangan, 2002. – B. 5.

¹⁶ Suyunov Sh. B. Mustaqil O'zbekiston muzeylarida ko'rgazmalar tayyorlanishi texnologiyalari. – Toshkent, 2014. – B. 10.

- ancha mashhur bo'lgan xususiy jamg'armalarni, yaxshi hovli-joylarni, machitlarni xususiy egalaridan tortib olish va ularni muzeyga aylantirish;

- mashhur bo'lgan barcha xususiy kolleksiyalarni ro'yxatga olish, qadimiy qo'rg'onchalarni nazoratdan o'tkazish (ko'zdan kechirish), tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan masjidlarni ajratish, ularga har qanday o'zgartirish kiritishni ta'qiqlash;

- joylarda o'g'rilik maqsadlarida olib boriladigan arxeologik qazishmalarga qarshi kurashish;

- muzeylarni ommaviy ma'rifiy organlarga aylantirish, ularni har xil muzeyga daxli bo'lmagan ortiqcha materiallardan tozalash, ularning har birining roli va ishining mazmunini aniq belgilash.

Sovet hokimiyati paydo bo'lgandan keyin muzeylarga rahbarlik qilish vazifasi maorif XKSga ya'ni uning qoshida tashkil qilingan "Muzey ishlari va qadimgi yodgorliklar hamda san'atni asrash bo'yicha Butunrossiya kollegiyasi" ning zimmasiga yuklatildi. Keyinchalik 1918-yilning mayida bu kollegiya maorif XKSning muzey bo'limiga aylantirildi va unga barcha muzeylarni birlashtirish va ularga rahbarlik qilish vazifasi topshirildi. Shunga muvofiq bo'limlar va bo'limchalar tashkil qilindi. Respublikadagi Maorif XKS lari qoshida ham bunday bo'limlar tashkil qilindi. Muzey ishiga tashkiliy va ilmiy rahbarlik qilish shu tariqa ta'minlandi¹⁰.

Chor hukumati Turkiston o'lkasi xalq ommasiga milliy jihatdan o'zini anglash uchun imkon bermas edi, chunki ular orasida tarixiy bilimlarni keng tashviqot qilish va ular etiborni qadimiy Yodgorliklar qimattiga jalb etish Chorizmning mustamlaka siyosatiga putur yetkazadi, deb hisoblar edilar. Lekin O'rta Osiyoni o'z mustamlaka mulki deb bilgan Chorizm beqiyos boyliklarni o'zlashtirish uchun Turkistoni ilmiy asosda o'rganish zarurligini yaxshi tushinar edi. Qisqa vaqt ichida o'lka meteorologiyasi, zoologiya, numizmatiksi, etnolografiya, dunyosiga oid atalib kolektsiyalar to'pladi.

Shu munosabat bilan tarqoq kompleksiyalarni birlashtirish va ularni Peterburgga to'xtalishi uchun saralash markazi lozim bo'lib qoladi. Buning uchun

¹⁰ Ўлжаева Ш. Музейшунослик (ўқув қўлланма). –Т.: 2002. –Б. 15.

qulay markaz muzey hisoblanib o'lkada muzey tashkil etish masalasi ko'tarildi. Jumladan A. P. Fedchenko Turkiston general- gubernatoriga tayyorlangan axborotda 'Turkistonni' muvoffaqiyatli rivojlantirishi uchun u bilan asosli ravishda tanishib chiqish kerak, muzey esa buning uchun yaxshi vositasidir', deb yozgan edi¹¹.

Turkiston Respublikasi XKS ning 1918-yil 19-apreldagi dekreti bilan Toshkentdagi knyaz Nikolay Romanovning majmualari davlat mulki deb e'lon qilindi. Uning dang'illama hovlisi xalq muzeyiga aylantirildi. Shu tariqa Turkistonning yangi hukumati XKS 1921-yilning 31-iyulida Turkiston Respublikasi xalqlarining madaniy xazinasining yo'qolib ketishi xavfini tug'diruvchi qadimiy va san'at buyumlarini hamda ilmiy kolleksiyalarni chetga olib chiqib ketishni ta'qiqlovchi qaror qabul qildi. Shu qarorga muvofiq ekspert komssiyasiga xalqning maishiy turmushiga oid antiqabuyumlarni bozor va do'konlarda sotilishini nazorat qilib turish topshirildi. 1918-yil 5-oktyabrida RSFSR XKS "Xususiy shaxslar, jamoalar va tashkilotlar egalik qilib kelayotgan san'at va qadimiy yodgorliklarni registratsiya qilish, hisobga olish va qo'riqlash to'g'risida" dekret chiqardi. Shu dekretga binoan barcha madaniyat yodgorliklari kimga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar davlat muhofazasiga o'tkazildi. O'z navbatida 1921-yilning 31-iyulida TASSR XKS "Turk Respublikasidagi ayrim shaxslar va jamoalar ixtiyoridagi san'at va tarixiy yodgorliklarni registratsiya qilish, hisobga olish va muhofaza qilish to'g'risida" qaror qabul qildi. Shu qarorga muvofiq muzey organlari zimmasiga quyidagi ma'suliyatli vazifa yuklatildi: "Barcha monumental va ashyoviy san'at asarlari hamda qadimiy yodgorliklarni dastlabki davlat registratsiyasidan o'tkazish, ular kimning ixtiyorida bo'lishidan qat'iy nazar hamda yaxlit to'plam shaklida, ham alohida predmet shaklida ro'yxatdan o'tkazish"¹².

Qarorda ko'rsatilgandek ro'yxatdan o'tgandan keyin Turkomstaris hisobida qoldirilgan to'plamlar va alohida san'at yodgorliklari davlat nazorati ostida bo'ldi.

¹¹ G'ofurov N., Talapov B. Muzeyshunoslik(ma'ruza matni). – Namangan, 2018. – B. 29.

¹² Mirhakimova F. X. Namangan viloyati muzeylar faoliyati. – Namangan, 2018. – B. 15.

Shundan keyin ularni sotish va chetga olib chiqib ketish, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazish ta'qiqlandi. Ular ta'mirlash, tuzatish uning joylardagi organlarining zimmasiga yuklandi va ular tomonidan qayd qilib borildi. Bu qaror asosan xususiy egalarning ixtiyorida bo'lgan yodgorliklarni nazarda tutar edi. Ularning egalari qaror qabul qilingandan boshlab uch oy muddat ichida o'zlarining to'plamlari haqida ma'lumot berishlari shart edi. Badiiy ilmiy yoki tarixiy jihatdan o'ta qimmatli bo'lgan yodgorliklar agar ularning muhofazasi xavf ostida qolgan, egasi ayamasdan munosabatda bo'layotgan yoki zaruriy choralar ko'rishga egasining imkoni bo'lmagan hollarda majburiy ravishda egasidan tortib olinib, davlat muhofazasiga o'tkazilishi ko'zda tug'ilgan edi.

Hali 1918-yilda muzey ishlari va qadimiy yodgorliklar, san'at va tabiatni asrash bo'yicha RSFSR Bosh qo'mitasi tuzilgan edi. 1921-yilning 23-mayida esa Turkomissiya va TASSR XKS Maorif xalq komissarligi qoshida "Muzey ishlari, qadimiy yodgorliklari, san'at va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha qo'mita" tashkil qildilar.

1921-yil 22-mayda Turkiston Respublikasi XKS Maorif xalq komissarligi tarkibida TurkKomstaris "Muzey ishlari, qadimiy yodgorliklarni, san'at va tabiatni qo'riqlash ishlari bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi nizom tasdiqlanadi. Komissiyaning zimmasiga Turkiston Respublikasidagi barcha muzeylarni birlashtirish va boshqarish, qadimiy yodgorliklarni, san'at va tabiatni qo'rikdash va ta'mirlash funksiyasi yuklatildi.

Muzeylar oldiga qo'yilgan vazifalar BMIK va RSFSR XKS ning 1928-yil 20-avgustda M. I. Kalinin imzo chekkan "Muzey qurilishi haqida" gi qarorida o'z ifodasini topgan edi. Bu qarorda muzeylar tarmog'ining notekis taqsimlanganligi munosabati bilan milliy o'lkalarda muzeylarni keng miqyosda tashkil qilish, tarixiy inqilobiy muzeylarni barpo etish, o'lkashunoslik muzeylarida tarixiy inqilobiy bo'limlarni tashkil etish masalasi qo'yildi, eksponatlarning xarakteri yig'uv faoliyatini kuchaytirish va kolleksiyalarni qayta taqsimlash muammosi ko'tarildi.

1928-yil 7-aprelda «СредазКомстарис» tugatilib, uning muassasalari – O'rta Osiyo Bosh muzeyi, Markaziy badiiy muzey, hayvonot bog'i va Inqilobiy muzey

O'z SSR Maorif xalq Komissariati Bosh fan bo'limi ixtiyoriga o'tkazildi. O'zbekiston Maorif XKSning 1928-yil 28-martdagi buyrug'iga binoan, Samarqandda muzey ishlari o'tmish san'at va tabiat yodgorliklarini muhofaza etish O'zbekiston komiteti – O'zkomstaris tashkil etildi. 1930-yil 1-dekabrda Moskvada muzeylarning 1 - syezdi o'z ishini boshladi. Syezd dialektik materializm va muzey qurilishi, muzeylardagi siyosiy-ma'rifiy ishlar, turli xildagi muzeylar tarmog'iga muvofiq umumiy qo'llanmalar chop etish kabi masalalarni ko'rib chiqdi¹³.

Bundan tashqari, syezdning maxsus organ, “Sovet muzeyi” jurnalini chiqarish haqidagi qarori ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Jurnal 1931-yildan nashr qilina boshladi¹⁴.

1933-yilda Toshkentda muzey ishini yanada rivojlantirishga oid asosiy yo'nalishlarni belgilash masalasi muxokamasiga bag'ishlangan muzey xodimlarining birinchi Respublika konferensiyasi chaqirildi.

Konferensiyada seksiya majlislarini uch komissiya tashkil etdi:

1. O'z SSR muzey tarmog'i va qurilishini rejalashtirish;
2. Muzeylarning ilmiy tadqiqotlar ishlari;
3. Muzeylarning ommaviy ma'rifiy faoliyati.

Konferensiya asosiy diqqatni muzeylarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga, ekspeditsiyalar, materiallar to'plashning muntazamligi, muzeyga kelayotgan materiallarni ilmiy inventarizatsiyalash va o'rganish, muzey ishi metodikasi va texnikasining umumiy masalalarini ishlab chiqishga qaratdi.

Konfersiya Maorif XKSga ikkinchi besh yillik uchun muzeylarning majmua nashr rejasini ishlab chiqishni taklif etdi. Bu reja asosiy faoliyati xarakteridan kelib chiqqan holdahar bir muzeyga oid maqolalar to'plamini “1917-yildan 1933-yilgacha O'zbekistonda muzey ishi” degan majmua xarakteridan asari, ko'rgazmali materialni qamrab olgan “O'zbekistonda muzey fondlari” nomli maqolalar to'plamini nashr etishni ko'zda tutgan edi. Shu yo'l bilan muzeylar faoliyatining barcha tomonlarini, ya'ni har birining jamlangan o'rni, maqsadi va tuzilishini

²⁰ Ўлжаева Ш. М. Музейшунослик (ўқув қўлланма). –Т., 2002. – Б. 18.

²¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Том. 12.– Тошкент: ЎзМЭ, 2003. – Б. 259.

yoritish, fondlarni kolleksiya xarakteristika hamda ularning umummilliy ahamiyati bilan tasvirlash, shunishdek eng qiziq va diqqatga sazovor obyektlarni ko'rsatish mo'ljallangan edi. Afsuski, bu reja amalga oshmadi.

XX asrning 40-yillarida muzey qurilishida ro'y bergan o'zgarishlar kun tartibiga malakali kadrlar tayyorlash masalasini qo'ydi.

Respublikada muzey kadrlarining ahvoli:

1. Yetarli ish stajiga ega xodimlarning kamligi; ba'zan esa ishga noloyiq xodimlarning ko'pligi;
2. Milliy kadrlarning ozligi;
3. Ayrim muzeylarda ilmiy xodimlar shtatining to'la komplektlashmaganligi;
4. Yangi kadrlar tayyorlashng'ng qoniqarsizligi bilan xarakterlanar edi.

1929-yilda Maorif Xalq Komissarligi qaroriga ko'ra, Markaziy oliy o'quv yurtlari qoshida muzey xodimlari malakasini oshirish bo'yicha 9 oylik kurslar tashkil qilindi. Bundan tashqari, 1932-yilda muzeysunoslik va san'atshunoslik sohasi bo'yicha ikki grupp aspirantlar tanlab olindi.

1934-yil kuzda RSFSR Maorif XK tomonidan oliy muzey kurslar tashkil etilib, keyinchalik doimiy oliy muzey o'quv yurtiga aylandi. 1937–1940- yillarda qisqa muddatli muzey kurslari tashkil etila boshlandi. 1930-yildan boshlab bunday kurslar milliy respublikalarda, jumladan, O'zbekistonda ham tashkil qilina boshlandi¹⁵.

1939-yilda O'zbekiston Maorif Xalq Komissarligi muzey xodimlari uchun yarim yillik muddatda mo'ljallangan oliy malaka oshirish kurslarini tashkil etish haqida qaror qabul qildi.

Mutaxassislarni oliy o'quv yurtlari orqali tayyorlash ham davom ettirildi. Jumladan, O'zbekiston muzeylari mutaxassis kadrlar bilan Andijon, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona pedagogika institutlarining tarix fakultetlarini bitirib chiqqanlar hisobiga ham to'ldirila bordi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muzey ishi qanchalik ilmiy asosda rivojlantirilmasin, baribir sovet davlati mafkurasini targ'ib qiluvchi markazga aylandi va ular siyosatlashtirildi.

²² Mirhakimova F. X. Namangan viloyati muzeylar faoliyati. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan, 2018. – B. 22.

1941-yil iyunda SSSR ning ikkinchi jahon urushiga tortilishi bilan xalqning tinch va osoyishta hayoti buzildi. Mamlakat harbiy izga tushdi. Ilmiy-tadqiqot muassasalari, shu jumladan, muzeylarning faoliyati ham tubdan o'zgardi. Ko'pgina muzeylar o'z binolarini evakuatsiya qilingan muassasalar uchun bo'shatib berdi.

Respublika muzeylar tarmog'i vaqtincha qisqardi: birgina O'zbekiston tarixi, madaniyati va san'ati muzeyi nomi ostida San'at, Adabiyot va O'zbekiston tarixi; tabiat muzeyi bilan birga Politehnika muzeyi birlashdi; ateistik targ'ibot muzeyi konservatsiya qilinadi. Respublikaning ko'pgina muzeylari ekspozitsiyalari yig'ishtirilib, ilmiy tadqiqot faoliyati hamda shtatlar qisqartirildi. Tarix muzeyidan 9 kishi, Samarqand muzeyidan 10 dan ortiq kishi frontga ketdi. Muzeylarning ommaviy tashviqot ishlari "Правда Востока", "Qizil O'zbekiston" gazetalarida qayd etildi. "O'zbekiston tarixi muzeyida" muzey tomonidan tashkil etilgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekistonda fanning turli soxalarini qamrab olgan ilmiy - tadqiqot muassasalarining keng tarmog'i vujudga keldi: 1943-yil respublika hududida 23 ta turli ilmiy stansiya, 2 ta rasadxona, 1 ta muzey va turli ilmiy - tadqiqot muassasasi mavjud edi.

SSSR XKSning 1943-yil 27-sentyabrdagi "O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasini tashkil etish haqida" qabul qilgan qaroridan so'ng boshqa institutlar qatori Tarix muzeyi ilmiy tadqiqot va siyosiy-ma'rifiy ishlarni olib boruvchi muzey sifatida San'at muzeyidan ajratilib O'z SSR FA O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi nomi ostida FA tarkibiga kiritildi. O'z FA tarkibiga Tabiat muzeyi ham kiritildi. Shunday qilib, respublikaning bu muassasalari faoliyatida yangi, muhim sahifa ochildi.

O'zbekistondagi ko'pchilik muzeylar 1946–1953-yillarda ko'rgazma tipidagi ekspozitsiyalar yaratish yo'lidan bordi.

1959-yilda Chirchiq, 1960-yilda esa Angren shahar o'lkashunoslik muzeyi, keyingi yillarda yana bir qator shahar va tuman o'lkashunoslik muzeylari tashkil etildi. 1963-yilda Ulug'bek muzeyi, 1964-yilda S. Ayniy muzeyi, 1964-yilda Y. Oxunboboyev muzeyi, 1967-yilda Hamza muzeyi, 1970-yilda Lenin muzeyi,

1972-yilda Farg'onada U. Yusupov muzeyi, 1974-yilda Yangi yo'lda U. Yusupovning uy muzeyi kabi memorial muzeylar shular jumlasidandir¹⁶.

1973-yilda O'zbekistonda turli yo'nalishdagi 30 ta muzey shu jumladan, 4 tarixiy, 4 memorial va 15 o'lkashunoslik muzeyi bo'lgan. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 10 ta, Samarqand va Farg'onada 5 tadan, Andijonda 4 ta muzey ish olib borgan. 1980-yilga kelib esa respublikada muzeylar soni 33 taga etdi, tomoshabinlar soni ham 3,7 mln kishiga ko'paydi¹⁷.

Dastlabki muzeylarni tashkil etish va boyitishda taniqli rus olimlari V. Oshanin, N. Mayev, V. Vyatkin, N. Seversov va b., L. Smirnov, K. Mauzer kabi havaskor tadqiqotchilar, Mirza Qosimov, Akrom Asqarov, Mirza Abdulla Buxoriy, Abu Sayd Mahzum kabi mahalliy ixlosmandlarning xizmati katta. Ular o'lkaning mineralogiya, zoologiya, numizmatika, etnografiyasi, flora va fauna dunyosiga oid ajoyib boy kolleksiyalar to'gshagan. 1876-yilda Toshkentdagi Turkiston muzeyidan tashqari 1895-yilda Farg'ona viloyati muzeyi ochilib, u dastlab shahar xalq muzeyi deb atalgan. 1896-yilda Samarqand, 1899-yilda Farg'onada o'lkashunoslik muzeylari ochildi¹⁸.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Sovetlar davrida muzey sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Muzeyga oid materiallarni yig'uv ishlarida mahalliy xalq vakillari ham ancha samarali ishlarni amalga oshirdilar. Natijada qadimiy yodgorliklarning bir qanchasi hozirgi kunga qadar saqlanib qoldi. Ularning tashabbuslari bilan o'lkamizdagi bir qancha qadimiy yodgorliklar saqlanib qolingani va ularning ko'plari bugungi kunda muzeylarga aylantirib kelinmoqda. Shuni ta'kidlash joizki ushbu muzeylar tariximizni yoritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bularning barchasi mustaqillik yillarida muzey fondlarini boyitishda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Chunki, sovetlar hukmronligi davrida o'z o'tmishiga qiziqish bu o'tmishni qo'msash deb baholangan edi, shunday murakkab davrlarda bunday yodgorliklarni saqlab qolish ma'naviy jasorat namunasi hisoblanadi.

²³ Ўлжаева Ш. Музейшунослик... – Б. 20.

²⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том. 12. – Тошкент: ЎзМЭ, 2003. – Б. 262.

²⁵ Караманова Г. К. Музейшунослик. – Нукус, 2007. – Б. 11.

1.2. Sovet davrida Farg’ona viloyatidagi muzeylarning moddiy-texnika ta’minoti va muzey fondlarining boyitilishi

Farg’ona viloyati o’lkashunoslik muzeyi hozirgi Markaziy Osiyo hududidagi eng mashhurlaridan biridir. Inqilobgacha bu yerda faqat to’rtta: Samarqand(1874), Toshkent (1876), Ashxobod va Yangi Marg’ilon (hozirgi Farg’ona) muzeylari mavjud edi. Farg’ona viloyat mahalliy muzeyi - O’zbekistonning eng qadimgi muzeylaridan biri. 1894-yil 16-oktyabrdan 7-noyabrgacha Yangi Margilon (hozirgi Farg’ona) shahrida birinchi mintaqaviy qishloq xo’jaligi va sanoat ko’rgazmasi bo’lib o’tdi. Ko’rgazmaning qolgan kolleksiyalarining bir qismi, turli kishilar tomonidan taqdim etilgan to’plamning bir qismi muzeyni yaratish uchun asos bo’lib xizmat qildi. Ayna shu xodisa shaharning ilg’or jamoatchiligining Yangi Marg’ilonda Farg’ona viloyati bilan yanada to’laroq va har tomonlama chuqur tanishish hamda o’lkani o’lganish o’rganish uchun muzey ta’sir etish fikrini tug’dirdi. Bu fikrga xayrihoxlik bildirildi va oliy viloyat ma’muriyati tomonidan qo’llab-quvatlandi.

Har bir shaharning qadimiy atalishi bo’lgani kabi Farg’onaning ham vujudga kelishi haqida turli-xil ma’lumotlar mavjud. Xitoy olimi Shyuy Shyuynaning yozishicha, sharqiy Eron tilida “Pargana” yoki “Barghana”, “atrofi tog’lar bilan o’ralgan va faqat bir tomoni ochiq bo’lgan joy” ma’nosini anglatadi. Arablar kelganidan keyin ularning tili xususiyatiga ko’ra “p” tovushi “f” ga o’zgarib, “Pargana” toponimi “Farg’ona” deb aytila boshlagan¹⁹. Farg’ona nomi dastlab Mug’ tog’idan topilgan (VIII asr boshlari) sug’d hujjatlarida Tabariy tarixida, Istahriy, Ibn Havqal va Muqaddasiy asarlarida uchraydi. Shahar 1887-yilda qurilgan. 1907-yilgacha Yangi Marg’ilon (mahalliy xalq orasida Sim) deb atalgan. 1907-yildan 1924-yilgacha Skobelev nomi bilan atalgan. 1924-yildan esa Farg’ona nomi bilan atalib kelinmoqda²⁰.

Sovetlar davrida muzeylardan mafkuraviy maydon sifatida foydalanish jarayoni ro’y berdi. Muzeylarda ekspozitsiyalar tarixiy taraqqiyotni ko’ratuvchi

²⁶ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Фарғона, 2013. – Б. 129.

²⁷ Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент, 2005. – Б. 161.

ashyo sifatida emas, balki mafkuraga xizmat qiluvchi jismlarga aylandi. Natijada tarix buzib ko'rsatildi, ko'p hollarda soxtalashtirildi²¹.

Bo'lajak muzeyning negizi bo'lib qisman ko'rgazmadan qolgan kolleksiyalar, qisman turli shaxslar hadya qilgan. Kolleksiyalar xizmat qildi. Obuna e'lon qilinib, u bo'lajak muzeyga ba'zi moddiy mablag'lar keltirildi. Viloyat harbiy gubernatori A. X. Povalov-Shveskoviyning 1895-yil 2-noyabr kungi 238-sonli buyrug'iga ko'ra, muzeyga rahbarlik qilish va yanada rivojlantirish uchun komitet ta'sis etilgan edi. Unga vaqtinchalikga gubernator uyining yuqori qavatidagi 4 ta xona ajratilgan muvaqqat komitetga Marg'ilon uyezdining boshlig'i – podpolkovnik A. I. Briyanov va boshqalar kirgan. 1897 yil 4-iyul muzey hartiyasi tomonidan ma'qullangan. Bu vaqtga kelib, muzeyda 1200 ta maqola va kitob mavjud. Farg'ona viloyati xalq muzeyi 1899-yil 26-maydai A. S. Pushkin tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan. Ochilish vaqtida unda 2223 ta kitob va kitob mavjud edi. Muzey hokimning uyi qanotida joylashgan va xususiy xayr-ehsonlar bilan shug'ullangan. Muzeyning ochilish paytiga kelib unda quyidagi bo'limlar mavjud edi:

- Qishloq xo'jaligi;
- sanoat;
- tabiiy-tarixiy;
- antropologiya va etnografiya;
- arxeologiya;
- Numizmatika;
- umumta'lim (kelib chiqishi mahalliy bo'lmagan buyumlar);
- kutubxonadan iborat bo'lgan.

Tabiiy-tarixiy bo'lim buyumlarining soni jihatidan eng katta va arxeologiya bo'limi eng kichik bo'lgan. Ayniqsa mashhur Turkiston tadqiqotchisining beva xotini O. A. Fedchenko Turkistonning sobiq general-gubernatori A. B. Verevskiy, shifokor A. E. Smirnov, imperator Rus geografiya jamiyati, Imperator Moskva tabiat sinovchilari jamiyati, Munusisnk mahalliy Xalq muzeyi, imperator Odessa

²⁸ Suyunov Sh. B. Mustaqil O'zbekiston muzeylarida ko'rgazmalar... – B. 38.

tarix va antiqiy buyum jamiyati, Farg'ona viloyat statistika kometeti va boshqalar. Muzeyga ko'p narsalarni hadya qilganlar. Muzeyning tantanali ochilish marosimida uning ahvoli haqidagi hisobot bilan chiqqan kometet raisi M. G. Grbanevskiy muzeyning maqsadlari hamda shahar va viloyat hayotidagi ahamiyati aniq ravishda ochib berilgan edi²².

“O'lkada yashovchi, uni o'rganish va tekshirish bilan qiziqadilar kishilarga mahalliy muzey bundey qiziqishning so'nmasligiga imkon beradi, o'z tomonidan ularga qo'llangan sifatida xizmat qiladi. Nihoyat, mahalliy muzey maorif, tarbiyaviy ahamiyatiga ega bo'lib, o'smirlarda turli-xil kolleksiyalar to'plamiga, ularni o'rab turgan jonajon tabiatini kuzatishga ishtiyoq tug'dirib bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish imkonii beradi”²³.

Muzey nuqul ixtiyoriy xayr-ehson va komitet a'zolarining badallari hisobiga faoliyat ko'rsatilgan. 1900-yilning 26-mayida muzeyning tashkil etilgan kuniga bir yil to'ldi. Bu vaqtga kelib uning kolleksiyalari 100 dan ortiq buyumga boy edi. Kutibxona ham ancha to'ldirildi. Avvalgiday, muzey xayr-ehson hadya evaziga boib bordi. 1901-yilda Toshkentda bosilgan birinchi yil hisobidan ularning eng yiriklari sanab o'tilgan. Misol uchun, arxeologiya bo'limiga texnik B. B. Rogovestkiy temir yo'l qurilishi paytida olib tashlangan. Andijon uyezdidagi qo'rg'onlardan birida topilgan qadimgi tosh topud devorlarini tashkil etgan, sirlangan bo'rtma Sharq naqshi tushirilgan 2 ta g'ishli piltalarni topshirgan. K. A. Brjeziskiy esa Marg'ilon uyezdining Asaka qishlog'i yaqinida haydash vaqtida topilgan qizil gildan yaxshilab pishirilgan shakli o'ziga xos uch ta jomni hadya qilgan. Antropologiya va etnografiya bo'limiga K. A. Rudanovskiyadan mahalliy kumush uzuklar, Eski Marg'ilonning eng kekxa oqsoqli Yo'ldosh Mahram Yuvosh Xo'jayevdan mahalliy musiqa asboblari kolleksiyasi tushgan. O'sha hisobot muzey o'zining fotosuratlar bilan birinchi Turkiston ko'chma fotosuratlar ko'rgazmasi qatnashganligi shuningdek, o'zining etnografiya tabiiy-tarixiy va sanoatga oid kolleksiyalari bilan 1900-yilda Parij Butunjahon ko'rgazmasining Turkiston

²⁹ Иванов Г. П. Фаргона ўлкашунослиги. – Фаргона, 1996. – Б. 9–10.

³⁰ Qarang: Писарчик. А. К. Некоторые данные по исторической топографии городов Ферганы. – Сталинабад, 1956. – С. 54.

bo'limida ishtirok etganligi aytiladi. Tomosha qilish uchun muzey yakshanba va bayram kunlari ochilib, odamlar bajonodil kelib tomosha qilganlar. Afsuski, 1911-yilda xususiy fondlar oqimining to'xtatilishi sababli muzey yopildi, muzey egallagan bino olib qo'yildab eksponatlar qishloq xo'jalik jamiyati joylashgan Konstantinopolskiya ko'chasi(hozirgi 1-May ko'chasi)dagi uy saroyiga tashlab qo'yilgan. 1920-yilda ishqiy dehqon va qizil askarlar deputatlari Farg'ona viloyat Kengashi (Soveti) Sobiq viloyat Xalq muzeyining qoldiqlarida Farg'ona shahar ilmiy muzeyi tashkil etdi. Unga sobiq qishloq xo'jalik jamiyatining binosi olib berildi. Bu binoda muzey 1920-1984-yilda joylashgan. Birinchi yillari ish tashkiliy xususiyatiga ega bo'lgan, saqlab qolingani eksponatlarini tartibiga keltirish, joy-joyiga qo'yish talab etilardi. E. L. Shestaperoov birinchi mudir bo'lgan. Ma'lumotiga ko'ra u artelerist (Mixaelov arteleriya bilim yurtini bitirgan), xavas, ishtiyoqiga ko'ra esa tabiatshunos – zoolog bo'lgan. Far'ona uni yangi va tekshirilmagan o'lka sifatida jalb qildi. Bu yerda u bilim yurtini bitirishi bilan kelgan, keyinchalik hayot uni har tomonlarga yetaklagan. Muzey arxivida E. L. Shestaperoov xoti saqlab qolingani bo'lib, unda u muzeyning tashkil etilishi haqida xikoya qiladi. 1919-yilda Farg'onada xali muzey bo'lmagan, sobiq muzey qoldiqlari esa qishloq xo'jalik mashinalari sobiq ombori hovlisidagi saroyga tashlab qo'yilgan, xuddi shu binoni muzeyga ajratishdi. Shaharda turgan harbiy asirlar orasida ham preparatory, ham ilmiy xodim topildi. Bitta zal etnografiya, boshqasi esa o'lkashunoslik bo'limi uchun ajratilgan, oxirgi xonada tangalar vitrinasi joylashgan stol joylashgan stol turgan. Muzey ochilishida xalq ta'limi bo'limidan ikki o'rtoq hozir bo'lgan, ulardan biri - Kolosov. Muzey xaftada bir marta keluvchilar uchun bepul ochilgan. Boshlangan bosmachilik ishga xalaqit qila boshladi, shahardan tashqariga chiqish xavfli bo'lib qoldi. Muzey mudiri bo'lib E. L. Shestoperoov 1922-yilgacha ishladi, so'ngra Ashxobodga ko'chib ketib, u yerdagi mahalliy muzeyda ishlagan va maktabda tabiatshunoslikdan dars bergan, 1934-yilda esa u Turkman ilmiy-tekshirish zoologiya stansiyasining ilmiy xodimi bo'lib ishlagan. Uning keyingi taqdiri fojiali bo'lgan. 1938-yilda u qibsga olingan. 1940-yilda vafot etib, 1956-yilda oqlangan.

1922-yildan muzeydan 1924-yilgacha muzeyga Emiliy Georgievich Balkaniskiy mudirlik qilgan. Millati bolgar, Bolgariya fuqorosi E. Balkaniskiy o'qimishli bo'lgan. U Varnada gimnaziyani, keyin esa Moskva Davlat universitetining tarix-filologiya fakultetini bitirgan. Skobelev (Farg'ona) shahrida 1916-yildan yashab, mahalliy gazeta va ROCT da korrektor, chiqaruvchi, bo'lib ishlagan, shuningdek o'rta maktabda rus tili o'qituvchi va Farg'ona fundamental kutubxonasi mudiri bo'lgan. Aynan shu kishi birinchi bo'lib bizning shahar parki (inqilobgacha-gubernator parki) ni ximoya qilib chiqqan. Muzey arxivida E. G. Balkaniskiyning Farg'ona shahar revkomi raisiga yozgan xati bor. Unda u gubernatorning sobiq uyida kavaleriya maktabi kursantlarining joylashishi va parkda 200 ta ot uchun qurilmaning barpo qilinishiga qarshilik ko'rsatadi.

Muzey tarixida Semyon Demitreyivich Dimetriyev sezilarli iz qoldirgan. U muzeyga 1924-yildan 1931-yilgacha mudirlik qilgan. 1932-yildan esa umrining oxirgi kunlariga qadar ilmiy xodim bo'lib ishlagan. S. D. Dmitriyev real bilim yurtini va 1-razryad bo'icha harbiy bilim yurti kurslarini tamomlagan, nemis, fransuz tillarini bilgan, o'zbekcha gapirgan.

Mudir bo'lib ishlab tirib (muzeyda 1923–1931-yillarda faqat ikkita shtat: mudir va farrosh-qorovul bo'lgan xalos) u bir vaqtning o'zida ham ma'mur, ham ilmiy hodim bo'lgan. Uning ilmiy xususiyati haqida quyidagi hujjat guvohlik beradi: 1922–1928-yillarda muzey tomonida ilmiy xarakterdagi quyidagi ishlar ko'zda tutilgan:

a) etnografiya bo'limini o'zbek kishisi va o'zbek ayyolining libosi bilan to'ldirish, bolalar o'yinchoqlari kolleksiyasini o'yinchoqlari kolleksiyasini to'ldirish, do'ppilar rasmlar kolleksiyasini tuzish, idish-tovoq kolleksiyasini to'ldirish mahalliy tegirmon va urib yanchadigan tegirmon modelini tashkil etish;

b) tabiatshunoslik bo'yicha kolleksiyani to'ldirish;

v) olingan (hadya qilingan) Numizmatika kolleksiyasini tartibga keltirish;

g) yoz davrida (agar mablag'lar bo'lsa) eski kolleksiyani to'ldirish uchun entomologiya bo'yicha material to'plash uchun ekeskursiya uyishtirish;

d) mahalliy aholi turmushi aks ettirilgan fotosuratlar ko'rgazmasini aks etish.

1922–1927-yillarda muzeyda quyidagi bo'limlar:

- qishloq xo'jaligi va kosibchilik;
- Numizmatika;
- tabiiy-tarixiy;
- etnografiya bo'limlari bo'lgan²⁴.

1928-yilda yangi tarixiy-arxeologiya bo'limi ochildi. U arxeolog M. E. Massonning ko'magida tashkil etilgan bo'lib, u muzeydagi arxeologiya bo'icha materiallar sanasini aniqlab atribussiyasini bergan. Bo'limda 28 nomer va 108 buyum bo'lgan. Toshkentdagi Bosh O'rta Osiyo muzeyi bilan o'rnatilgan aloqalar Numizmatika bo'limini to'ldirish imkonini berdi. 1928-yilda u yerdan Romanovlar sulolasi xukmron bo'lgan butun davrga mansub tangalar (mis va kumush) ning to'la qimmatli kolleksiyasi va Ivan IV ning kumush tangalari – jami 87 birlik kelib tushgan. 1929-yilda S. D. Dmitriyev Mehnat saroyi qoshidagi bog' (hozirgi Ahmad Farg'oniy nomidagi bog'da va shahar parkida) o'sadigan hamma noyob daraxtlarni tavsiflab daraxtlarda ularning lotin, rus va o'zbek tillaridagi nomi ko'rsatilgan taxtachalarni mahkamlab qo'ygan. Bundan oldin esa, 1924-yilda uning sa'y harakatlari tufayli Mehnat Saroyi xuzuridagi park davlar ximoyasiga olingan. Tabiat bo'limining ilmiy xodimi bo'lib ishlab turib S. D. Dmitriyev 1930-yillar oxirida 1970-yillargacha katta bo'lmagan o'zgarishlar bilan saqlanib qolgan landshaflar bo'yicha ekspozitsiyani yaratdi. 1932-yilda muzeyda inqilob bo'limi tashkil etildi. Yangi direktor fuqorolarfuqorolar urishi qatnashchisi qizil gvardiyachi Qurbon Murodov uning bosh tashabbuskori bo'ldi. Muzeyning nomi qanday o'zgargan?

1920–1930-yillarda Farg'ona shahar ilmiy muzeyi.

1930–1937-yillarda Farg'ona vodiysining tumanlararo o'lkashunoslik muzeyi.

1938-yildan esa Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi.

Bu vaqtda unda quyidagi bo'limlar: kirish, tabiat, tarix va satsialistik qurilish

³¹ Иванов Г. П. Фарғона ўлкашунослиги. – Фарғона. 1996. – Б. 14.

bo'limlari bo'lgan. Farg'ona muzeyi vodiydagi boshqa muzeylardan ijobiy tomonlardan ancha farq qilgan²⁵. “Farg'ona o'lkashunoslik muzeyining ishi va ahvoli haqida”gi yozma axborotdan:

Muzey ekspozitsiyasining afzalliklari shundan iboratki, u boshqalarga qaraganda mahalliy materiallarga ancha boy bo'lib, shu ma'noda o'lkashunoslik muzeyi vazifalariga javob beradi. Ekspozitsiyaning ikkinchi afzal tomoni shundaki, u o'zining ilmiy-to'plam o'lkashunoslik ishi asosida olib boriladi.

1932-yildan 1940-yillar oralig'ida muzey qiyofasi ancha o'zgardi. Muzey jamoasi va xususan Murodov va Shcheblanov o'rtoqlari O'rta Osiyodagi inqilob tarixi va fuqorolar urishiga mansub ko'plab noyob suratlar va hujjatlarni aniqlab, to'plab muzey jihatdan rasmiylashtirdilar. 1940-yilga kelib muzey fondlari o'sdi. Agar 1920-yilda ularda 1730 ta eksponat bo'lsa, 1940-yilda 6299 ta bo'lgan. 1940-yilda muzeyni 29390 kishi (1924-yilda esa 450 kishi) tomosh qilgan. 1941-yilning o'zidayoq uni 7000 dan ortiq kishi tomosho qildi 1943-yilda Farg'onaning eng keksa rassomi P. M. Nikiforovning ko'rgazmasi tashkil etilib, unda uning 246 ta asari, asosan tabiat manzaralari o'rin oldi. 1944-yilning kuzida, O'zbekiston SSR ning 20-yilligiga viloyat teatrida “Farg'ona viloyati Ulug' Vatan urishi yillarida” degan ko'rgazma ochildi. Muzeyda har kuni Sovinform byuroning byulletenlari osib qo'yilgan. Eski plakatlar yoki o'rov qog'ozining teskari tomonida qo'lda yozilgan bir qancha shunday byulletenlar muzey fondlarida extiyot qilib saqlanmoqda.

1950–1970-yillar muzeyning shakllanish yillari bo'lgan. 1951-yilda muzeyga Leningrad Davlat universitetining bitiruvchisi arxealog Natalya Grigorevna Gorbunova keldi. U ilmiy rahbar bo'lib ishlagan. Muzey shtati 8 kishidan: director, ilmiy rahbar, tabiat va sovet davri tarixi, fandlar mudiri, buxgalter va farrosh va qoravullar vazifalarini ham bajaruvchi ikki nazoratchilardan iborat bo'lgan. Muzeyning Fuqorolar urishi bo'yicha qismi “o'lkashunoslik” deb atash mumkin edi xalos. N. G. Gorbunova va B. Z. Gamburgning eng asosiy xizmatlari shundaki, ular rejali arxeologik ishlarga kirishishgan, ularga qadar muzeyning arxeologik

²⁵ Qareng: Бартольд. В. В., Сочинения, II часть 2, –Москва, 1964 г.

kolleksiyalari tasodifiy topilmalardan iborat bo'lgan. SSSR Fanlar akademiyasi Moddiy madaniyat tarixi institutining O'rta Osiyo va Kavkaz sektorining 1955-yilning 24-noyabrida bo'lib o'tgan yig'ilishida:

-“O'zbekiston SSR Madaniyat ministrligining Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi oxirgi bir qancha yillar ichida nafaqat Farg'onaning qadimgi tarixi, balki O'rta Osiyoning barcha xalqlari tarixini o'rganish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan samarali arxeologik ishlarini olib bormoqda;

- muzeyning ilmiy xodimlari N. G. Gorbubova va B. Z. Gamburg qiziqarli arxeologik material bergan va O'rta Osiyo xalqlari tarixidan qator masalalarni yangicha yoritishga imkon beruvchi Vodil va Oqtom qadimgi qabristonlarida qazish ishlarini o'tqazdilar” deb ta'kidlagan edi.

1953-yildan 1956-yilgacha arxeologiya fondi 2731 ta saqlov birligiga o'sdi. 1972-yildan muzeyda ko'rgazma ishi boshlandi. Har yilda turg'un va ko'chma ko'rgazmalar tashkil qilingan. Xuddi shu yillar muzey fondlarini komplektlash va hisobga olish yuzasidan ish davom etib, bunda fondler mudiri Valentena Fedorova Nikitinaning xizmatlari kattadir. Ekspeditsiyalar uyishtirilgan, ilmiy-oqartuv ishlari yanada turli tuman bo'lib qolgan: muzey qoshida o'lkashunoslik universiteti, “Jemchujina” (Durdona) o'lkashunoslik klubi faoliyat ko'rsatgan. Viloyat muzeyning filiallari tashkil etila boshlangan. Hozirgi kunda ularning soni 5 ta. Ularning birinchisi Hamza Hakimzoda Niyoziy muzeyi Shohimardon qishlog'ida 1957-yilda ochilgan.

1989-yilda shoirning tug'ilgan kuning 100 yilligida muzeyning yangi qurilgan binosida yangi ekspozitsiyalar ochilish marosimi bo'lib o'tdi. 1933-yilda ekspozitsiya Shohimardonning tarixiy o'tmishi, Hamzaning zamondoshlari haqidagi yangi materiallari bilan to'ldirildi.

Usmon Yusupovning memorial muzeyi uning vatani – Farg'ona tumaning Kaptarxona qishlog'ida 1974-yilning oktyabr oyida ochilgan. Unda 1937–1950-yillarda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari Usmon Yusupovning hayoti va faoliyati, shu bilan birga respublika tarixining asosiy bosqichlarini ochib beruvchi boy hujjatli va ashyoviy material namoyish

etiladi. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi birinchi raisi Y. Oxunboboyevning memorial muzeyi uning vatani Marg'ilon shahrida 1964-yildayoq tuzilgan. 1978-yilda u viloyat muzeying uchinchi filiali bo'lib qoldi. 1984-yilning dekabrda Yaypan shahrida viloyatning birinchi tuman tarixi muzeyi – to'rtinchi filiali ochildi. Muzeyning 10-yilligiga bugungi o'zgarishlar hisobga olingan holda uning ekspozitsiyasi butunlay qayta qurilgan. Beshinchi filiali - Marg'ilon shahridagi Adabiyot va san'at muzeyi 1989-yilda tashkil etilgan. 1985-yilda viloyat muzeyi maxsus qurilgan yangi binoga ko'chib o'tdi. Hozirgi kunda unda uchta ekspozitsiya bo'limlari: tabiat, tarix va san'at, fondler va ilmiy oqartuv ishlar bo'limlari bor.

Keyingi yillarda ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinishi bilan katta ekspozitsiya va ko'rgazma ishlari o'tqazildi. 1993-1994-yillarda tabiat va Farg'onaning qadimgi tarixi(eng qadimgi va XII asr tarixi davri)bo'limlarining ekspozitsiyalari ochilgan. Tabiat bo'limi ekspozitsiyasi landshaftli prinsip asosida qurilgan.Unda birinchi bor O'z ENRAXM rassomlari yaratgan landshaftlar diagrammasini foydalanilgan. Ekspozitsiya muzeyga keluvchilarni Farg'ona vodiysi tabiati bilan tanishtiribgina qolmay, balki unda geografiya va biologiyadan turli mavzularda dars o'tish imkonini beradi. Muzeyda qator turg'un ko'rgazmalar ishlab turgan bo'lib, ular orasida “Mustaqillik yo'lidan”, “Milliy kashta, gazlama, kiyim-kechak”, “Sharq qo'lyozmalari” va boshqalar diqqatga sazovordir. Har yilda Farg'onalik rassomlarning ko'rgazmalari uyishtiriladi. Agar muzey ochilgan yilda unda 2000 mingdan sal ortiq buyum va kitoblar bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib uning fondlarida 68000 ga yaqin saql birligi bor. Muzey kutubxonasida 12482 ta kitob, ilmiy arxivga mansub 1237 ta saql birligi mavjud²⁶. Shu jumladan, Farg'ona o'lkashunoslik muzeyi faoliyati Farg'ona shahrida Sovet Ittifoqi ta'sis etilganidan keyin qayta tiklandi.

O'tgan asrning 20-yillari o'rtalarida muzeyda sovet hokimiyatining mahalliy qarama-qarshi otryadlarga bo'lgan g'alabalari fotosuratlar va hujjatlarda aks ettirilgan tarixiy bo'lim yaratilgan. Keyinchalik bu bo'lim sanoatlashtirish

³³ Иванов Г. П. Фарғона ўлкашунослиги.... – Б. 21.

vakollektivlashtirish, viloyatda madaniy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha materiallar bilan to'ldirildi. Muzeyi muzey xodimlari sezilarli oldida Farg'ona qahramonlik kishilarning uning yig'ish materiallari va orqa o'z fidokorona ishlari kengaydi. Ikkinchi jahon urushi paytida qattiq ishladi. 50-yillarning boshidan buyon o'tgan asrning oxirida muzey Leningrad universitetining bitiruvchilari N. Gorbunova tomonidan rejalashtirilgan arxeologik ishlarni boshlab yubordi. Gorbunova va B. S. Gamburg faqat 1951-yildan 1956-yilgacha 2161 ta eksponat (muzey ochilish vaqtida, uning mablag'ida faqat 2 ta arxeologiya ob'yekti mavjud) bo'lgan arxeologik to'plamlar bilan to'ldirildi. Hozirgi vaqtda muzeyning arxeologik to'plami Farg'ona vodiysidagi eng boylardan biri hisoblanadi: 10 mingdan ortiq narsalar. Ular vodiya joylashgan tosh ashyolardan, keramika va bronzalardan, vodiya joylashgan qabriston va turar-joylardan yig'ilgan to'plamlar va boshqalar.

Umuman olganda, muzeyda 80 mingdan ziyod eksponatlar mavjud. Arxeologik materiallardan tashqari, bular dekorativ va amaliy san'at asarlari, Rishton va Gurumcay kulolchiligi to'plamlari, bo'rttirma, zargarlik buyumlari, kashtachilikdir. Katta, qiziqarli suratlar to'plami, jumladan, birinchi Farg'onalik professional rassomlarning asarlari, jumladan; M. N. Yantan va P. M. Nikiforov, xalq rassomi A. N. Volkova, zamonaviy Farg'ona ustalarining asarlari, jamg'armaning katta qismi mintaqaning qadimiy va zamonaviy tarixining asl fotosuratlarini, hujjatlari va moddiy qo'lyozmalaridan iborat.

Mustaqillik yillarida Farg'ona muzeyining mintaqaning ijtimoiy hayotidagi o'rni sezilarli darajada oshdi. So'nggi o'n yil mobaynida muzey xodimlari bir necha ekspeditsiyalarni mustaqil ravishda o'tkazdilar. Muzey xodimlarining yordami bilan Ahmad al-Farg'oniyni 1200-yilligi va Burxoniddin al-Marginiyning 900-yilligi kabi xalqaro tadbirlar tashkil etildi. Ayni paytda muzey xodimlari Quva, Oltiariq va O'zbekiston tumanlarida arxeologik qazishmalar olib bormoqda. O'zbekiston mustaqillik yillarida muzey xodimlari bir necha monografiyalarni nashr etishdi. Masalan, G. P. birgalikda O'zbekiston Respublikasi Arxeologiya instituti bilan Ivanov (o'zbek va ingliz tilida) 'Ahmad

al-Farg'oniy zamonida Siti Quva' bir ikki tilli monografiya chop etildi. N. Abdulahat Hoshimov va Boris broshyura bir qator yozgan, 'Ahmad al-Farg'oniy', 'Mo'yi Muborak', 'Burkhaniddin al-Margiloniyni va uning avlodlari yoshi. ' Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarda muntazam ravishda ilmiy va mashhur maqolalar chop etiladi. Har yilda muzeyga 60 mingdan ortiq mehmon tashrif buyuradi. Tarix, geografiya, adabiyot, san'at va boshqalar, shuningdek, talabalar, o'qituvchilar, aspirantlar, tadqiqotchilar va boshqalarning amaliy mashg'ulotlari mavjud.

Viloyat muzeyi 7 filiallari mavjud: Marg'ilon shahridagi qishlog'ida Hamza obad xotira muzeyi, Yo'ldash Oxunboboyev qishloq Kaptarhona Farg'ona tuman muzey, Hamza Hakimzoda Niyoziy tarixiy muzeyi, U. Yusupova, O'zbekiston Yaypan tuman tarixi muzeyi, Adabiyot va san'at muzeyi bilan Marg'ilon shahri, Uchko'prikdagi Xaziniy muzeyi, Oltiariq tumanining tarixi muzeyi joylashgan. Farg'ona viloyat muzeyi - O'zbekistonning eng qadimgi muzeylaridan biri. Muzey fondiga Farg'ona vodiysi tarixining barcha davrlari, madaniyati va san'ati bilan bog'liq narsalarning ajoyib to'plamlari kiritilgan. Muzey kolleksiyasida 80 mingdan ortiq kishi mavjud. 1899-yil 26-mayda 'Farg'ona viloyati milliy muzeyi' tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Muzey kolleksiyasida 2223 asar va kitob mavjud edi. 1928-yilda yangi arxeologiya bo'limi ochilgan. 1938- yilda muzey o'z faoliyatini hududiy muzey sifatida boshladi. Ko'rgazmalar soni o'sha vaqtga qadar 15 mingdan oshdi. Muzey 1950- yildan buyon arxeologiya sohasida o'z faoliyatini boshladi. Bugungi kunda muzey arxeologik jamg'armasi Farg'ona (9 milliondan ortiq), shuningdek, salbiy, foto va inson hayotini aks ettiradigan hujjatlardagi eng boy kolleksiyalarga ega. Bugungi kunda Farg'ona viloyat muzeyida barcha zamonaviy texnika vositalari mavjud. 2009 va 2012-yillarda muzey xodimlari Misr va Yaponiyada bo'lib o'tgan ikkita yirik xalqaro anjumanlarda ma'ruzalar bilan ishtirok etdilar. Ko'rgazmalarning aksariyati xalqaro ko'rgazmalarda namoyish

etilganligini alohida ta'kidlash joiz. Muzey ekspozitsiyasi 2000-yilda Germaniyada va 2003-yilda Angliyada namoyish etildi²⁷.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi hozirgi kunda eng qadimiy muzeylardan biri bo'lib, o'z faoliyati turli-xil davrlarda rivojlantirib bordi. Hozirgi kunda bu muzeyda vatanimiz tarixiga oid bir qator materiallar saqlanib kelmoqda. Muzeyda saqlanayotgan eksponatlar Jahon hamjamiyatini ham e'tiborini tortib kelmoqda.

³⁴ <https://uz.m.wikipedia>.

II BOB. FARG'ONA VILOYATI MUZEYLARI MUSTAQILLIK YILLARIDA

2.1. Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

Bugun mamlakatimizda xalqimizning tarixiy, ilmiy va madaniy merosi, ma'naviy qadriyatlarini o'zida asrab kelayotgan mingdan ziyod muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu muzeylar Vatanimizning rivojlanish tarixi, xalqimizning ijtimoiy-madaniy sohalarda erishgan yutuqlari haqida hikoya qiluvchi o'ziga xos ko'zgudir.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "Muzey xalq tarixining ko'zgusi ekanligini nazarda tutsak, u shu xalqning farzandlari – kelajak avlod qalbida faxr iftixor tuyg'usini uyg'ota olishi kerak. Bizning vazifamiz esa buyuk tariximizni mana shunday ma'rifiy maskanlar yordamida avlodlarimizga to'laligicha yetkazib berishdan iborat"²⁸.

Mustaqillik tufayli hayotimizning barcha sohalari kabi muzeylar faoliyatida ham ma'naviy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan islohotlar dasturining ishlab chiqilishi, xususan, Prezidentimiz I. A. Karimovning 'Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va jonlashtirish to'g'risida'gi Farmoni muzeyshunoslik fanining ravnaqiga keng yo'l ochish bilan birga, asosiy yo'nalishlarni belgilab, vazifalarni aniqlab berdi. Viloyatdagi muzeylarning ana shu yo'nalishlarda olib borayotgan madaniy, ilmiy-ma'rifiy ishlari va bir qator tadbirlar axoli, ayniqsa, yoshlar o'rtasida katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Chunonchi, jamiyatni ma'naviy-axloqiy kamolga etkazishda muzeylarning o'rni muhimligini inobatga olib O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Madaniyat ishlari va xalq ta'limi vazirliklarining 2002-yil iyunda qabul qilgan qo'shma buyrug'i²⁹ni va shu haqidagi viloyat hokimligining muzeylar va o'quv yurtlari o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, madaniy-ma'rifiy ishlarni hamkorlikda olib borishga keng imkoniyatlar yaratib berdi.

1991-yilda 31-avgustda o'zbek xalqi uzoq vaqtlardan beri orziqib kutgan

³⁵ Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Том. 5. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 135.

³⁶ Bahriddinov O. Muzeylar tariximiz guvohi // Namangan haqiqati. 2004 yil 10-mart.

mustaqillikka erishdi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston muzeylarining ijtimoiy-madaniy hayotda o'zgarishlari yuz bera boshladi, ekspozitsion ishlarga ham yangicha yondashish paydo bo'ldi. Muzeylarning oldida o'z ekspozitsiyalarini ifodali va taasurot qoldira oladigan qilib yaratish vazifasi qo'yildi³⁰. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha tarmoqlarida bo'lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o'tmish merosimizni o'rganish, saqlash va uni keng xalq ommasiga targ'ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Vatanimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, hayotidagi o'zgarishlar qatorida O'zbekiston hududidagi muzeylar faoliyatida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Buning bir qancha omillarini misol qilishimiz mumkin:

Birinchidan, mustamlakachilik yillarida ongimizdan o'chirib tashlangan milliy tuyg'ularni qayta tiklash;

ikkinchidan, milliy g'urur, milliy ongni yuksaltirish uchun unutilgan tariximizni qayta tiklash;

uchinchidan, ajdodlar hurmatini joyiga qo'yish, yosh avlodni ajdodlar nomi va merosi bilan faxrlanishga o'rgatish, milliy g'ururini yuksaltirish, buyuk an'analarning davomchisi etib tarbiyalash;

to'rtinchidan, milliy qadriyatlarimiz bizga demokratik, xuquqiy, qudratli O'zbekiston davlatini barpo etish uchun "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun kerak;

beshinchidan, milliy qadriyatlarimiz mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun kerak.

Ana shu maqsadlar davlatimizning asosiy harakatlarida o'z ifodasini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni 1998-yil 12-yanvardagi PF-1913-sonli farmoni qabul qilinib, bu muzey va muzey xodimlarining hayotida katta ahamiyat kasb etdi. Farmonda asosan O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish,

³⁷ Suyunov Sh. B. Mustaqil O'zbekiston muzeylarida..... – B. 21.

xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini mustaqilligimizning odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, ulardan xalqimizning ongida milliy g'urur va iftixor, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish yo'lida keng foydalanish, muzeylarning zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy – texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo'llashga zarur sharoitlar, chora – tadbirlar - Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshida muzeylarni qo'llab quvvatlovchi "O'zbekmuzey" jamg'armasi tashkil etildi³¹. "O'zbekmuzey" jamg'armasi faoliyatining birinchi kunlaridanoq o'zining asosiy yo'nalishlarini belgilab, amalda joriy etish lozim bo'lgan vazifalarini aniqladi:

1. Respublikamiz muzeylari o'z yo'nalishlariga qarab xalqimiz boy madaniy merosini, uning taraqqiyot bosqichlaridagi o'rnini haqqoniy aks ettirib, zamon talablari asosida istiqlol ruhidagi ekspozitsiyalar yaratishi zarurligi.

2. Asrlar davomida yaratilib, chetga chiqib ketgan merosimizni Vatanimizga qaytarish.

3. Muzeylarni ma'naviyat o'chog'iga aylantirib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbiga davlatchiligimiz tarixiga, qadimgi asos solingan ajdodlarimiz merosiga nisbatan g'urur va faxr tuyg'usini singdirish.

4. Muzeylarimizdagi boy eksponatlarni, yutuqlarimizni jahon jamoatchiligiga tanitish maqsadida targ'ibot ishlarini kuchaytirib, viloyatlararo ko'rgazmalar tashkil etishga ko'maklashish.

5. Xalqaro turizmni rivojlantirib O'zbekiston muzeylariga chet ellik sayyohlarni jalb etib, ularga yuksak madaniy xizmat ko'rsatish.

6. Muzeylar fondidagi eksponatlarning yagona ro'yxatini tuzish ishlarida zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanish hamda noyob eksponatlar aks etgan otkritkalar, bukletlar, yo'l ko'rsatgichlar, kataloglar chop etish.

7. Kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy qarash maqsadida oliy o'quv yurtlariga

³⁸ Reymbayev R. Muzeyshunoslik (Ma'ruzalar matni). – Nukus, 2012. – B. 9.

muzeyshunos olimlarni jalb etib, o'qitish usullarini takomillashtirish. O'quv mashg'ulotlarini amaliy mashg'ulotlar bilan birga olib borish, respublikada etakchi muzeylarda muzey xodimlarining malakasini oshirish³².

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-mart "Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab quvvatlash masalalari to'g'risida"gi 98-sonli qarori "O'zbekmuzey" jamg'armasiga, O'zbekiston muzeylar jamoatchilik kengashining xalqaro muzeylar kengashi – IKOMga a'zo bo'lganligini hisobga olib, O'zbekiston muzeylariga har tomonlama yordam ko'rsatish vazifasi topshirildi. Ushbu qarorda mamlakat muzeylarini ta'mirlash, zarur texnik vositalar va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda mablag' bilan ta'minlash vazifalari yuklatilgan³³.

Muzeylar tarixiy, tabiiy, moddiy, ma'naviy yodgorliklarni maxsus e'tibor berib to'plash, saqiash, o'rganish va targ'ib qiliish ilmiy-ma'rifiy muassasalari sifatida mustaqillik sharoitida munosib ravnaq topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylar faoliyatini yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida (1998-yil, 12-yanvar)gi Farmoni O'zbekistonda muzeylar faoliyati va tizimini yanada takomillashtirish, ularning kishilarm axJoqiy kamolotidagi o'rnini oshirish, tarixiy merosni asrash, o'rganish va targ'ib qilish, muzeylardan milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish yo'lida foydalanish, ularni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kabi ishlarni amalga oshirishga zamin bo'lmoqda. Mustaqillik davrida Toshkentda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar davri davlat muzeyi, Andijonda 'Bobur' yodgorlik kompleksi, Buxoroda Bahouddin Naqshband, Chelak tumanida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi, Quvada 'Shahriston' tarixiy-me'morial majmuasi kabilar yaratildi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona davlat muzey-qo'riqxonalari ta'mirlandi. Xalq amaliy san'ati muzeyi, O'zbekiston Davlat san'at muzeylari boyitilmoqda. Bunday ishlar

³⁹ Раҳимов Ф. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда музейлар фаолияти: шаклланиши, ривожланиши ва истикболи масалалари / Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. 10 китоб. – Тошкент, 2018. – Б. 383.

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 5 мартдаги "Музейлар фаолиятини tubdan қўллаб-қувватлаш масалалари тўғрисида"ги 98-сонли Қарори // Lex.uz.

natijasida xalqimizning tarixiy xotirasi tiklanmoqda, millatimiz o'zligini anglamoqda³⁴.

Bugungi kunda Respublikamizning turli shaharlarida 1200 dan ortiq muzeylar mavjud. Shu bilan birgalikda yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san'at arboblarning uy muzeylari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Xususan, keyingi 10 yil ichida Davlat tasarrufidagi muzeylar soni 140 tani tashkil etdi. Shulardan tarix muzeylari 75 ta, o'lkashunoslik muzeylari 23 ta, badiiy san'at muzeylari 10 ta, memorial muassasa 20 ta, adabiyot muzeylari 8 ta, tabiat muzeylari 4 tadan iborat. Bundan tashqari 7 mingdan ko'proq yodgorlik, shu jumladan, 2500 me'moriy obida, 2700 dan ziyod arxeologiya yodgorligi³⁵, 1800 dan ko'proq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Ayni paytda bularda 1 million 600 mingdan ortiq eksponatlar mavjud³⁶.

O'zbekiston mustaqillikga erishgandan so'ng ko'plab muzeylar tashkil etildi. Masalan: Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-aprel qaroriga muvofiq, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi qayta tashkil etildi. Mohiyat e'tibori bilan qaralganda tom ma'nodagi zamonaviy va milliy muzeyga aynan shu sanada asos solindi. Hozirgi kunda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi eng yirik ilmiy ma'rifiy markazlardan hisoblanib, uning jamg'armasida 250 mingga yaqin eksponat mavjud. Ular orasida numizmatika, arxeologiya, tangashunoslik va etnografiyaga oid ko'plab qimmatli jamlamalar bor.

1992-yil may oyida Namanganda ulug' o'zbek shoiri "Boborahim Mashrab" muzeyi³⁷, 1992-yil sentyabrda Xorazm viloyatining Xonqa tumanida milliy mumtoz musiqalarning mashhur ijrochisi, Xorazm hofizlar maktabining asoschisi Hojixon Boltaboyev nomidagi o'ziga xos noyob "Maqomchilar" muzeyi va Urganch shahrida qadimgi "Xorazm amaliy san'ati va tarixi" muzeylari tashkil etildi. "Xorazm Amaliy san'ati va tarixi" muzeyi ekspozitsiyalarini uch mingga yaqin turli eksponatlar tarixiy hujjatlar, qadimgi xorazmliklar foydalangan uy – joy

⁴¹ Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2011. – B. 175.

⁴² Раҳимов Ф. Мустиқиллик йилларида Ўзбекистонда музейлар фаолияти.... – Б. 386.

⁴³ <http://ziyonet.uz>.

⁴⁴ Раҳимов Ф. Мустиқиллик йилларида Ўзбекистонда музейлар фаолияти..... – Б. 387.

anjomlari, tikuvchilik va gilam mahsulotlari, idish - tovoqlar, mehnat qurollari tashkil etadi³⁸.

1992-yil noyabr oyida Buxoroda O'zbekistonda birinchi marta temirchilik muzeyi ochildi. 1992-yil dekabrda Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida ochilgan xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi dastlabki mehmonlarni qabul qildi. 1993-yil 1-sentyabrda Toshkent Davlat texnika universiteti qoshida O'zbekistonda birinchi bo'lib Politexnika muzeyi ochildi. 1993-yil 3-sentyabrda Toshkentda o'zbek ayollari ichidan chiqqan birinchi huquqshunos olim akademika Xadicha Sulaymonova muzeyi ochildi³⁹. 1993-yil 10- sentyabrda Toshkentda o'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboyeva muzeyi, 21 -sentyabrda esa Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho'pon, ikki marta Mehnat qahramoni, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi Jaboy Balimanovning hayoti va mehnat faoliyati haqida ma'lumot beruvchi muzey faoliyat boshladi. Shu yil noyabr oyida Toshkentda ochilgan O'zbekiston Xalq ta'limi tarixi muzeyi o'z faoliyatini boshladi.

Farg'ona shahrida ichki ishlar tizimi tarixi va bugunidan hikoya qiluvchi muzey hamda el yurt tinchligi yo'lida jonini fido qilgan o'lonlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida xotira xiyoboni tashkil etildi. Farg'ona viloyati IIB shaxsiy tarkib bilan ishlash xizmati boshlog'i o'rinbosari, mayor Azizbek Umarovning ma'lumot qilishicha, muzeydan ichki ishlar idoralari faoliyatiga oid ma'lumotlar, sohada ko'p yillar ishlab nafaqaga chiqqan xodimlar, mustaqillik yillarida yuksak mukofotlarga sazovor bo'lgan, shuningdek, xizmat vaqtida halok bo'lgan osoyishtalik posboni haqidagi eksponatlar, ko'rgazmalar joy olgan⁴⁰.

Ma'lumki, mamlakatimizda muzeychilik tarixi bir yarim asrga borib taqaladi. Shu vaqtda O'zbekistonning yirik shaharlari – Toshkent (1876- y.) va Samarqand (1896- y.) shaharlari qatorida Farg'onada ham birinchilardan bo'lib muzey tashkil qilingan. Mazkur muzeyga 1894-yilda asos solingan bo'lib, u vaqtlarda shahar Yangi Marg'ilon deb atalardi. Muzeyni tashkil etilishiga esa, doktor A.

⁴⁵ Reymbayev R. Muzeyshunoslik... – B. 6.

⁴⁶ [www.fikr.uz](http://storage.museumfergana.uz/source), <http://storage.museumfergana.uz/source>.

⁴⁷ <https://storage.kun.uz.source/uploads>.

Smirnovning shaxsiy kolleksiyasi va shu yilda o'tkazilgan Qishloq xo'jalik ko'rgazmasi uchun yig'ilgan ashyolar turtki bo'ldi. O'lkaga endigina kirib kelgan rus ma'murlari uchun mahalliy aholining turmush tarzi, urf-odati va boshqa etnografik buyumlari qiziqarli ko'ringan. Natijada bir necha tashabbuskorlarning iltimosiga ko'ra 1895-yil 2-noyabrda Farg'ona viloyat harbiy gubernatorining muzeyni tashkillash to'g'risidagi buyrug'i qabul qilindi.

1897-yilda muzey nizomi tasdiqlanib, 1899-yil 26-may kuni muzey "Farg'ona ommabop muzeyi" nomi bilan tantanali ravishda ochildi. Bu vaqtga kelib muzeyda 2223 dona buyum va kitoblar yig'ilgandi. Muzey odatda dam olish va bayram kunlari ochiq bo'lardi. Zotan, muzey "ommabop" deb atalsada, u asosan yangimarg'ilonlik ziyoliylar yoki viloyatga kelgan nufuzli mehmonlar uchun maxsus ochilar edi xolos. E'tiborlisi shundaki, muzey shaxsiy hayriyalar evaziga tutib turilgan. Muzey qoshida maxsus klub tuzilgan edi va ushbu klub a'zolari turli kasb egalari (vrach, o'qituvchi, injener, harbiy zobit, botanik tadqiqotchi, agronom va boshq) bo'lishiga qaramay, doimiy ravishda muzey zahiraxonalariga ashyolar topshirib turishardi. Klub a'zolari orasida ayniqsa viloyat o'rmon xo'jaligi mudiri, biolog G. Ottendorf katta jonbozlik ko'rsatib, viloyatning turli chekkalaridan yig'ilgan noyob ashyolarni muzeyga topshirardi. U muzeyda o'tkaziladigan tadbirlarning tashkilotchisi ham edi. Shunday klub a'zolaridan yana biri mashhur rus tadqiqotchisi A. Fedchenko va uning rafiqasi O. Fedchenkolar edi. Ularning muzeyga topshirgan gerbariylari va noyob hashoratlar kolleksiyasi xali-hamon muzeyning noyob ashyolari qatorida saqlanmoqda.

1920-yilda Farg'onadagi siyosiy tuzumning o'zgarishi natijasida muzeyning maqsad va vazifasi ham o'zgardi. Muzey esa kolleksiyasidan kelib chiqqan holda uning faoliyati ikkiga ajratildi. Shu yilda viloyatda "Ommabop kutubxona" va "Farg'ona shahar ilmiy muzeyi" yangidan o'z faoliyatini boshladi.

Agar kutubxona o'z joyida qolgan bo'lsa, muzey hozirgi Turon ko'chasidagi binolardan biriga ko'chirib kelindi va u 1984-yilga qadar mazkur binoda faoliyat ko'rsatdi.

1922–1927-yillarda muzey ekspozitsiyasida qishloq xo'jalik, hunarmandchilik, numizmatika, tabiat, tarix va etnografiya bo'limlari mavjud edi. 1928-yilda yangi arxeologiya bo'limi ochildi. Ushbu bo'limning ochilishiga sovet davlatining markaziy shaharlaridan kelgan tadqiqotchilarning ekspeditsiya materiallari to'plamlari sababchi bo'ldi. B. Latinin boshchiligidagi ilk arxeologik ekspeditsiya Farg'ona muzeyida baza qurib, tadqiqotlarni olib borgan edi. Natijada muzeyning arxeologik ashyolari keskin ortib bordi. Ushbu ekspeditsiya tarkibida A. Bernshtam, V. Ranov, B. Jukov kabi kelgusidagi yetuk arxeologlar ham qatnashgan edi.

1938-yildan muzey “Viloyat o'lkashunoslik muzeyi” sifatida faoliyat olib bora boshladi. Bu vaqtga kelib muzeyda kirish, tabiat, tarix va sotsialistik qurilish ekspozitsiyasi mavjud edi. Ekspozitsiyaning soni esa 15000dan oshdi. Katta Farg'ona kanali qurilishi vaqtida ham Farg'ona muzeyi ilmiy baza sifatida muhim rol o'ynadi. Kanal trassasini tadqiq qilish jatumanida arxeologlar B. Jukov va Yahyo G'ulomovlar boshchiligidagi ekspeditsiya Farg'ona muzeyi kolleksiyalarini boyitishda katta hissa qo'shishgan.

Yoki Quva shahristonida olib borilgan tadqiqotlar markazida ham Farg'ona muzeyi xodimlari turardi. V. Bulatova tomonidan aniqlangan olmasumul Quva Budda ibodatxonasi tadqiqotlari jatumanida muzey xodimlari faol qatnashib, islomdan oldingi ijtimoiy hayotni tassavvur etishda katta xizmat qilishgan.

Afsuski, topilmalarning asosiy qismi mamlakatimizning markaziy ilmiy-tadqiqot institutlari va muzeylariga olib ketib qolingan. Shunday bo'lsada muzey, antik va ilk o'rta asrlarga mansub qator arxeologik ashyolarga ega bo'ldi. Shu yillar ilk bor Farg'ona vodiysining yuqori poleolit va mezolit davri yodgorliklari o'rganila boshlandi. Muzey fondlarida shu yillarda topilgan mikrolit tosh qurollarning bir nechtasi saqlanadi. Ikkinchi jahon urushi yillarida muzey o'z faoliyatini yanada kuchaytirdi. Uning xodimlari fondlarni farg'onaliklarning frontdagi mislsiz jasorati va front ortidagi fidokorona mehnati to'g'risidagi hujjatlar bilan yanada boyitdi. Shu yillarda rassom P. Nikiforov muzeyda samarali faoliyat olib borib, muzey ekspozitsiyalarini yaratish, illyustratsiyalar bilan boyitish va Markaziy Osiyodagi diqqatga sazovor joylar tasvirini yaratishda katta

ishlarni amalga oshirdi. Hozirda muzeyda uning yuzdan ortiq akvarel, grafika va moy bo'yoq usuldagi asarlari saqlanmoqda.

1950-yillarning boshlarida muzey Davlat Ermitaji (Leningrad) bilan hamkorlikda Farg'ona vodiysidagi arxeologik ishlarni olib borishga astoydil kirishdi. Bu tadqiqotlarga Leningrad Davlat Universitetining bitiruvchilari N. Garbunova va B. Gamburqlar rahbarlik qilib, vodiydagi arxeologik ob'ektlarni to'liq tahlil qilishga muvassar bo'lindi. Ular birinchi bo'lib, vodiyni arxeologik haritasini tuzib chiqishdi.

Ular bilan paralel ravishda Pomir Oloy tog' tizmalarida arxeolog A. Bernshtam, shimoli-sharqiy Farg'onada Yu. Zadneprovskiy, shimoli-g'arbiy Farg'onada V. Ranov va B. Litvinskiylar tadqiqot olib borishdi. Markaziy Farg'onada olib borilgan tadqiqotlarda esa, ularning ekspeditsiyasi birgalikda ish olib borib, qator natijalarga erishdi. Ushbu tadqiqotlarning markazida Farg'ona muzeyi turgan edi. Shu jumladan yuqorida nomlari keltirilgan arxeologlarning barchasi muzey fondlarida tadqiqot olib borib, ilmiy arxivlarda o'z materiallarini qoldirishgan. Hozirda muzeyning ilmiy arxivida 1952–1955-yillardagi tadqiqot hisobotlari saqlanib kelinmoqda. 1950-yillarning yakuniga kelib, muzey fondi uch mingdan ziyod arxeologik buyumlar bilan boyitilgan edi. Vaholanki, muzey ochilgan vaqtda faqatgina ikki dona arxeologik buyum mavjud edi xalos.

Muzey xodimlari 1960–1980-yillar oralig'ida ham samarali tadqiqotlar olib borib, o'nlab yangi arxeologik manzilgohlar va yuzlab predmetlarni ixtiro qilishgan edi. Qo'g'ay-qorabuloq, Eylaton-Oqtom, So'ngi Eylaton davri madaniyati kabi arxeologik terminlar aynan Farg'ona muzeyi xodimlari kiritgan yangi terminlar edi. Hozirgi kunda arxeologlar tomonidan Farg'ona vodiysidagi ob'ektlarni tarixiy davrlashtirishda aynan shu terminlarga nisbatan belgilash qabul qilingan. Shu yillar mobaynida muzey boy va noyob kolleksiyalar yig'ildi. Bronza va ilk temir davri sopol buyumlari, Qoraxoniylar davriga mansub bronza idishlar to'plami, qo'lda ishlangan rangli sopol ko'za va boshqalar ana shular jumlasidandir. Farg'ona muzeyi kolleksiyalari haqida o'nlab ilmiy va ommabop maqolalar yozilgan. G. Pugachenkova, R. Rempel, A. Hakimov va boshqalar

muzeyda tadqiqot olib borib, turli mavzularda ilmiy ishlar qilishgan. Muzey logotipi ham Qoraxoniylar davriga mansub bronza laganga ishlangan tasvirdan olingan bo'lib, unda Humo qushining ilohiy timsoli aks ettirilgan.

80-yillarga kelganda muzey zahiraxonlarida 50 mingdan ziyod eksponatlar jamlangan edi. Endi muzey uchun yangi, zamonaviy muzey qurish zarurati tug'ildi. Zotan yangi binoni loyihalashtirish ishlari 70-yillarda boshlangan bo'lsa-da, faqat 1982-yilga kelib hozirgi Murabbiylar va Vatan Ravnaqi ko'chalari chorrahasida qurilish boshlandi. 1985-yilda qurilish tugallanib, muzey shu binoga ko'chib o'tdi.

Muzeyning ilmiy-ma'rifiy faoliyati yanada kuchaydi. Endi muzey mustaqil ravishda tadqiqotlar olib bora boshladi. Ular asosan janubiy Farg'ona hududidagi qo'rg'on, shahriston va boshqa turdagi arxeologik manzilgohlarni tizimli o'rganishni yo'lga qo'yishdi. Muzey ilmiy xodimi G. Ivanov boshchiligidagi ekspeditsiya Qo'chqorchi, Qitqontepa, Ko'ktosh, Oxna kabi manzilgoh larni fanga ma'lum qildi va Farg'ona vodiysi arxeologik haritasini bronza, antik va ilk o'rta asrlarga mansub yangi yodgorliklar bilan to'ldirdi.

Shu yillarda muzeyning etnografik, rang tasvir, numizmatik, foto va negativ, gazeta va hujjatlar fondi to'liq shakllandi. Ular asosan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan buyon yig'ilgan ashyolardan iborat bo'ldi. Ayniqsa shu davrga mansub foto va negativ, gazeta va hujjatlar kolleksiyasi muhim ahamiyat kasb etib, bugungi tadqiqotchilarning xazinasiga aylangan. Muzeyning ko'lyozma va hujjatlar kolleksiyasining nodir namunalari sifatida XV asrda yozilgan er to'g'risidagi hujjat. Qo'qon xonlaridan Madalixon, Sheralixon va Xudoyorxonlar tomonidan berilgan yorliqlar, Xudoyorxonning Qur'on kitobi, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil va boshqa mahalliy shoirlar ijodiga mansub qo'lyozma asarlarini sanab o'tishimiz mumkin. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Farg'ona viloyatining statistik sharhlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytish joizki, muzeyda saqlanuvchi eksponatlarni ko'pi shu yillar xalqaro miqqiyosdagi ko'rgazmalarda namoyish etilgan. 1952 va 1972-yillarda Leningrad

(Sankt-Peterburg, Rossiya) va 1978-yilda Kiyev (Ukraina) Farg'ona muzeyining qadimiy kolleksiyalari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Bugun muzey fondlarida turli davrlarga mansub buyumlarning boy kolleksiyasi yig'ilgan. Umumiy hisobda muzey eksponatlarining soni 90mingdan ortiq. Ular o'nta bo'linga taqsimlangan bo'lib, 700 dan ortiq eksponatlar noyob eksponatlar jumlasiga kiradi. Ular jumlasiga XVIII–XX asrga oid Rishton, G'urumsaroy kulolchilik maktabi, sopol buyumlarining nodir namunalari, Xitoy chinini buyumlari, Rossiyaning F. Gardner, M. Kuznetsov va keyinroq "Dmitrievskiy" fabrikalarida ishlab chiqarilgan noyob idishlar, Temuriylar davridan hozirgi kunlargacha bo'lgan davrlarga mansub metall (asoson bronza va mis) buyumlarni kiritish mumkin. Ularning aksariyati mahalliy misgarlik maktabi vakillari (Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent) tomonidan XIX–XX asrlarda ishlangan an'anaviy uslubdagi mis buyumlardir.

Muzeydagi yog'och buyumlar kolleksiyasida XIX asr va XX asr boshlariga oid yog'ochsoz ustalari tomonidan ishlangan ko'plab buyumlar bor. Masalan, qo'qonlik ustalarning turli naqshlarda islomiy shakllar bilan bezatilgan bir qancha ajoyib buyumlari, kolleksiyaning ilk eksponatlaridan biri – Shahrixon volosti boshqaruvchisi topshirgan yog'ochdan ishlangan "xakkalkavush"lar, doktor A. Smirnov kolleksiyasidagi yog'och buyumlar, duradgorlik asboblari, bolalar o'yinchoqlari, beshiklar, milliy cholg'u asboblari va ko'plab hunarmandchilik dastgohlari ushbu kolleksiya asosini tashkil etadi.

Mato buyum kolleksiyasining negizini XIX asrga oid milliy-an'anaviy kiyimlar tashkil etadi. Shuningdek, XIX asrga oid kashtachilik, chitgarlik, ipak mahsuloti namunalari yoki keyinroq fabrikada tikilgan zamonaviy kiyimlar "Yodgorlik" to'qimachilik fabrikasida to'qilgan ipak matolar, davlat arboblari, taniqli san'at namoyondalari singari va boshqa tarixiy shaxslarga tegishli kiyim va buyumlar kiradi.

Muzeyning tasviriy san'at va haykaltaroshlik kolleksiyasi muzey durdonasi hisoblanadi. Bular orasida taniqli farg'onalik rassomlarining asarlari, shuningdek, hozirgi kunda o'z asarlari bilan elga tanilayotgan rassomlarning ijodiy namunalari

o'rin olgan. O'tgan asrning 70-yillariga kelib, ushbu kolleksiyadan gobelenlar ham o'rin ola boshladi. Hozirgi kunga kelib bu kolleksiyada mingdan ortiq tasviriysan'at, haykaltaroshlik va gobelen asarlari saqlanadi.

Muzey qurol-aslaha kolleksiyasi xilma-xilligi bilan e'tiborga molikdir. Bu kolleksiya XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda ishlab chiqarilgan tig'li qurollardan: kilich, hanjar, chopqi, bolta, to'qmoq; o'qotar qurollardan: piltamiltiq, revolver, pistolet, ov miltqlari, jangovor miltqlar singari jami 150 ortiq qurol aslahalarni o'zida mujassamlaydi.

Mustaqillik yillarida muzeylarning roli va vazifasi keskin o'zgardi. Hukumat tomonidan muzeylarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Endi muzeylar o'zbek xalqining boy va haqqoniy tarixini ochib berishga qaratilgan faoliyatni yo'lga qo'ydi. Respublikada birinchilardan bo'lib Farg'ona muzeyi 1996-yilda o'z ekspozitsiyalarini to'liq o'zgartirishga muvaqqat bo'ldi. Ushbu ekspozitsiya tarixiy ketma-ketlikda, chuqur ilmiy asoslangan konsepsiyaga tayangan holda, qadimiy davrlardan XX asr boshlariga bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Unda qadimgi sak qabilalari qozoni va bilaguzugi, Chust madaniyatiga doir topilmalar, Oqtom va Ko'ktosh dafinasi, qadimgi taqinchoqlar, o'rta asrga oid kulolchilik va shisha buyum namunalari, temirchilik va misgarlik, mehnat va jang qurollari kabi yuzlab eksponatlar namoyish etilmoqda. Shu yilda Farg'ona viloyatining mustaqillik yillarida erishgan muvaffaqiyatlariga bog'ishlangan maxsus ko'rgazma ham o'z ishini boshladi.

Muzey xodimlarining mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi xizmatlari yanada ko'proq ko'zga tashlana boshladi. Bevosita ularning xizmatlari evaziga, nafaqat mamlakatimiz, balki butun jahon miqyosidagi tantanalarni nishonlashga muvaffaq bo'linmoqda. Buyuk vatandoshlarimiz Ahmad Farg'oniyni 1200-yillik va Burhoniddin Margiloniyni 900 yillik yubileyleri ana shular jumlasidandir. Bevosita muzey xodimlarining ommaviy va ilmiy chiqishlari evaziga yuqoridagi yubileyleri nishonlashga erishildi.

Muzey ilmiy xodimlari G. Ivanovning "Ahmad Farg'oniyni davrida Quva shahri" nomli, N. Abdulhatov va B. Hoshimovlarning "Ahmad Farg'oniyni" va

“Burhoniddin Marg’inoniy davri va uning avlodlari” nomli risolalari bunga misol bo’la oladi. Bundan tashqari mavzuga aloqador o’nlab ommabop maqolalar e’lon qilindi. Ahmad Farg’oniyni Quva shahri atrofida tavallud topganligi to’g’risidagi faraz birinchi marta ushbu xodimlar tomonidan ilmiy jamoatchilik o’rtasiga tashlandi. Tez orada bu faraz keng jamoatchilik orasida e’tibor qozondi. Ulardan tashqari har yilda muzey ilmiy xodimlari ilmiy va ilmiy ommabop maqolalari chet el va respublikamiz ilmiy nashrlarida e’lon qilinib boriladi. Jamoatchilik diqqatini tortgan asarlardan “Farg’ona vodiysining qadimgi shaharlari”, “Mo’yi muborak” kabi kitoblarni ham sanab o’tish mumkin.

Agar bular Farg’ona vodiysi tarixi bilan bog’liq asarlar bo’lsa, bevosita muzeyning uslubiy faoliyatiga bog’liq nashriy mahsulotlar ham ko’pchilikni qiziqtirib qo’ydi. 1996-yilda nashr etilgan “Farg’ona viloyat o’lkashunoslik muzeyi” nomli ilmiy maqolalar to’plami, B. Hoshimovning 2005-yilda nashr etilgan “Farg’ona viloyat o’lkashunoslik muzeyi” nomli rangli albom-katologi yoki shu nom bilan chop etilgan ishchi katalog muzeyshunoslikdagi noyob badiiy va uslubiy nashr sifatida qayd etiladi.

Endilikda muzeylarning hamkorlik diapozoni yanada kengaydi. Farg’ona muzeyi Yaponiya, Italiya va Ukrainaning ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikda 4 ta xalqaro ekspeditsiyalarda ishtirok etadi. Jumladan o’zbek-ukrain ekspeditsiyasida ilmiy xodim G. Ivanov Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi Sulaymontepa manzilgohida va Buxoro viloyatidagi Uchquloq manzilgohida o’zbek-ukrain-italiya qo’shma ekspeditsiyasida ishtirok etib, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. Shuningdek, Beshariq tumanida (Novkat va Galasak) qadimgi yodgorliklarida qazilma ishlarini o’rganishda ishtirok etdi. Muzey xodimlari Yaponiyaning Kioto Universiteti bilan “Farg’ona vodiysidagi qozilik hujjatlari tarixidan”, Tokio Universiteti bilan “Farg’onadagi musulmon yodgorliklari” nomli loyihalar ustida ishlab, muhim yangilarni qo’lga kiritishdi.

Mustaqil ravishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ham yo’lga qo’yildab, so’nggi yigirma yil ichida Farg’ona viloyatidagi Quva shahristoni, Oltiariq tumanidagi Zuraykmomo, Rishton tumanidagi Oqtapa va Sohbi Hidoya,

Uchko'prik tumanidagi Sariqo'rg'on, Farg'ona tumanidagi Kaptarxona va Nortepa manzilgohlaridan muzey xodimlari tomonidan tadqiq qilib chiqildi. Unda bir nechta yangiliklar ham qo'lga kiritilib, shov-shuvlarga ham sabab bo'ldi. Masalan, Quva shahristonidan X–XI asrlarga mansub ostadonlarning topilishi, uning madaniy qatlamlari milodiy eradan avvalgi VI–VII asrlarga borib taqalishi muhim ilmiy yangilik edi. Yoki, Zuraykmomudan milodiy era boshlariga mansub dehqonchilik manzilgohi aniqlanganligi ham shov-shuvli yangilik bo'ldi. Sohibi Hidoyadan esa, X–XI asrlarga oid bronza idishlar kolleksiyasining topilishi noyob hodisa edi.

Ekspozitsiya yaratish bo'yicha ham samarali ishlar olib bormoqda. Muzeyning doimiy ekspozitsiyasidan tashqari "Farg'ona viloyati mustaqillik yillarida" nomli fundamental ekspozitsiyani yaratilishi ham muhim voqea sifatida qayd etildi. Har yilda mazkur ekspozitsiyani o'rta hisobda yuz ming kishi tomosha qilib ketishga muvassar bo'ladi. Unda viloyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotiga oid barcha sohalar aks ettirilgan bo'lib, bugun Farg'ona to'g'risida to'liq ma'lumotlar namoyish etilmoqda.

Mustaqillik yillarida Farg'ona muzeyining joylardagi filiallari soni ham ortdi. Agar 2007-yilda Marg'ilon shahrida "Shahar tarixi muzeyi" va "Uvaysiy uy-muzeyi" tashkillangan bo'lsa, 2016-yilda Oltiariq tumanida "Erkin Vohidov uy-muzeyi" tashkil topib, viloyat aholisi va mehmonlariga namunaviy xizmat ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli qaroriga asosan, Farg'ona muzeyi "Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi" nomiga o'zgartirildi. Bugungi kunda Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi barcha turdagi zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlangan bo'lib, ular ilmiy-tadqiqot ishlariga katta samara bermoqda⁴¹.

Xulosa qilib aytadiga bo'lsak, muzeyda va muzey tashqarisida xodimlar tomonidan turli mavzulardagi suhbatlar, uchrashuvlar, ma'ruzalar, ko'rgazma,

⁴¹ Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi joriy arxividan.

ko'chma ko'rgazmalar va tadbirlar o'tkazilib turiladi. Tashrif buyuruvchilarga xodimlar tomonidan mavzuli va umumiy eksursiya xizmatlari ko'rsatilmoqda.

2.2. Qo'qon shahar madaniyati va davlati tarixi muzeyi

Har bir shaharning sevimli bir go'shasi bo'ladi. Xo'qandi latifning bundey go'shasi – Xudayorxon o'rdasi va unda joylashgan muzeyi. Mehmondo'st Qo'qonliklar o'z xonadonlari yoki ishxonalariga kelgan mehmonlarni muzey ziyoratiga olib kelmaguncha ko'ngillari tinchimaydi. Muzeyning o'ziga xos oxangrabosi bor: shahar ahli, ayniqsa bolalar muzeyni necha qayta tomosha qilgan bo'lsalarda, bayram kunlari saylni albatta muzeydan boshlaydilar. Zero, ular bu yerdan turib moziyga sayoxat qiladilar, nafosat olamining haqiqiy mo'jizalaridan baxramand bo'ladidan. Qo'qon muzeylari haqida gapirishdan oldin “Qo'qon” so'zinig kelib chiqishiga to'xtaladigan bo'lsak, bu haqida Isoqxon Ibratning bergan ma'lumotlaridan foydalanamiz.

“Xutsand shahri Farg'onada bir katta shahar bo'lib, islom podshohlarini matsarri saltanati uchun ibtido Xutsanddan bayon qilinadur. Vajhi tasmiyai Xutsand budurki, xavosini Xutsanddan ul shahar bo'lmagan vaqtda Xutsand hududida tutzar va qamushzor yerlar bo'lib, ul vaqtda Chodak xojalari-tojiklar yashar ekanlar. Ul vaqtda bul tutzorlarda har xil xuklar, to'nguzlar yurar ekan. Ular yerlarni kovlab, har xil ovqat topib yer ekanlar, bu jihatdan tojik xojalar kelganda necha yerlar kovlagan ekan. Ular bu chutsurlar nima, degan. Kim kovlagan deganda, tojik javob berib: ‘Xuk kand’ deganda, ya'ni to'nguz kovlagan deganda ul yerlarni ismi ‘Xuk kand’ bo'lib, xuk kand aytrotsda siyin bulub, bizning turkiyda ‘sof’ harfi saviy uchun Xutsand bo'lgan, forsiy ‘kof’ni turkiy ‘sof’ga badal silganlar, turkiylar lafzidur. Mana, endi, yana bir badal bo'ldi, ruscha aytganda ‘sof’ yurtni ‘Kukand’ bo'ldi. Shunga o'xshash har vaqtda, har sabila lisonlari ilan tabodil ulub, shevalari o'zgargan. Muni ba'zi xutsandiy yaxshi ta'vil ila Xuyi sand derlar, ya'ni fe'li-xuyi sand degan emish”⁴².

Ba'za manbalarda esa, “Hudud ul-olam”da (Ho'qand-Huvoqand) – xalq zich

⁴⁹ Исҳоқхон Тўра Иброт. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Маънавият, 1991. – Б. 7.

yashaydigan shaharcha” kabi ma’nolarda uchraydi⁴³.

Respublikamizda o’tmishdan qolgan saroy inshootlaridan muzey sifatida foydalanib kelinmoqda. Xivadagi Toshhovli va Nurillaboy saroylari, Buxoroda Ark va amirning yozlik saroyi – Sitorayi Mohi Xosa shular jumlasidandir. Qo’qon shahar o’lkashunoslik muzeyi esa sobiq Xudoyorxon o’rdasida joylashgan. Qo’qon xonligi tugatilgach, o’rdaning katta qismi buzib tashlandi, qolgan qismi Qo’qon garnizoni qal’asiga aylantirildi. 1920-yillarda o’rda binosida Qo’chilar soyuzi, Qashoqlar qo’mitasi faoliyat ko’rsatdi. 1924-yilda binoda Farg’ona viloyati qishloq xo’jaligi ko’rgazmasi ochildi. Ko’rgazmada qishloq xo’jasi va sano’at mahsulotlaridan tashqari, vodiya uchraydigan hayvonlarning tulumlari, foydali qazilmalar namunalari, milliy liboslar va uy-ro’zg’or buyumlari, vodiya xunarmandlari va ustalari tomonlaridan yaratilgan xunarmandchilik mahsulotlari va san’at asarlari ham namoyish etildi. 1925-yilda maskur eksponatlar asosida muzey tashkil etildi. Muzey 1929-yilgacha Okrug muzeyi, 1937-yilgacha tumanlararo muzey va 1959-yildan boshlab Qo’qon shahar o’lkashunoslik muzeyi deb nomlandi.

Mustaqillik yillarida Prezident Islom Karimov va hukumatimizning yuksak e’tiborlari, qator farmon va qarorlari sharofati bilan mamlakatimizdagi muzeylar faoliyati tubdan yaxshilandi, yanada takomillashtirildi. Bundan yuksak e’tibordan Qo’qon shahar o’lkashunoslik muzeyi ham chetda qolmadi. Prezidentimiz 2009-yilning oktyabr oyida va 2011-yil oktyabr oyida Qo’qonga tashrif buyurganlarida muzeyni ziyorat qilib, obodonchilik, tamir, muzey faoliyatini yaxshilash borasida amaliy yordam va maslahatlar berdilar.

Keyingi yillarda muzey Respublikaning yirik ilmiy-madaniy maskanlaridan biriga aylandi. Muzey ilmiy xodimlari o’lkashunoslik tadqiqotlari olib borish asnosida Farg’ona vodiysining tabiati, tarixi, o’ziga xos san’ati va madaniyatiga oid 36 mingdan ziyod osori-atiqalar to’pladilar. Maskur eksponatlarning aksariyat qismi tarix va san’at bo’limi namoyishgohlarida namoyish etiladi.

Qo’qon O’lkashunoslik muzeyida saqlanayotgan eksponatlar tavsifi.

⁵⁰ Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент, 2005. – Б. 163.

Jamg'armalar (materiali bo'yicha).

1. Metall jamg'armasining asosiy qismini rixtagarlik, degrezlik, temirchilik, misgarlik xunarleri hamda qandakorlik san'ati mahsulot va namunalari tashkil etadi. Shuningdek, oz miqdorda aslaxasozlik san'ati namunalari ham mavjud. Bu eksponatlar temir, cho'yan, haftjo'ch, mis, jez kabi metallar va qotishmalardan tayyorlangan. Yaratilishi tarixi X asrdan XX asrgacha davr oralig'ini olgan. Eng qadimiylari Qoraxoniylar hukmronligi hamda Yevropadagi risarlik davrlari(X-XII asrlar)ga tog'ri keladi. Metall jamg'armasi materiali va texnikasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Mis va jez buyumlar: 380

Shuning ichidan:

- Qandaxorlik san'ati namunalari – 240 ta.
- Rixtagarlik va degrezlik mahsulotlari – 46 ta.
- Temirchilik mahsulotlari – 120 ta.
- Aslahasozlik san'ati namunalari – 32 ta.
- Boshqa metall buyumlar – 228 ta.

Noyob va qadimiy eksponatlar: XI–XVII asrlarga oid qadimgi qurol-yarog'lar, Qo'qonda va chet ellarda yaratilgan o'yma naqsh va yozuv tushirilgan mis-jez buyumlari. Jami eksponatlar soni: 806

2. Yog'och buyumlar jamg'armasining Qo'qon yog'och o'ymakorligi maktabida yaratilgan san'at asarlari (o'ymakor eshiklar, xon taxtalar, kursilar, lavxlar va boshqalar) va Xitoy va Rus mebeli mavjud. Yog'och jamg'armasi ishlab chiqarilishiga ko'ra quyidagi jamlanmalarga bo'linadi:

O'ymakorlik bilan ishlangan milliy mebel va jihozlar.

- Cholg'u asboblari.
- Qoliplar.
- Transport vositalari.
- Imorat ashyolari.
- Mehnat qurollari.
- Uy ro'zg'or buyumlari.

Jami eksponatlar soni – 590 ta.

3. Kulolchilik va chinni jamg'armasi.

Kulolchilik jamg'armasi ibtidoiy jamoa tizimi davrida ishlangan eng sodda kulolchilik mahsulotlari va ularning parchalari, Qo'qon, Rishton, G'urumsaroy kulollarining XVII - XX asrlar mobaynida yaratgan mahsulotlari, koshin namunalari chinni jamg'armasi asosan Xitoy va Rossiya fabrika chinni buyumlaridan iborat. Oz miqdorda Yapon imperator chinni korxonasi ham bor. Shuningdek, O'zbekiston chinni zavodlari mahsulotlari ham saqlanadi.

Bulardan: kulolchilik mahsulotlari – 564 ta, chinni buyumlar – 229 ta.

Jamg'armadagi eng noyob buyumlar: Qo'qon zavodidan topilgan, milodiy eraning I asriga oid ko'zalar; Rustam va G'urumsaroy kulollari tomonidan yaratilgan san'at asarlari Yapon va Xitoy vazalari Qashqar chilimlari va idishlari; qoshin namunalari. Jami eksponatlar soni: 793.

4. Gazlama va charm jamg'armazi.

Jamg'armaga, materiali, texnikasi va qo'llanilishi sohalari bo'yicha quyidagi jamlanmalar kiradi:

- To'qimachilik mahsulotlari (gazlamalar).
- To'qimachilik asbob dasgohlari.
- Kashdado'zlik mahsulotlari.
- Jiyakdo'zlik mahsulotlari.
- Liboslar.
- Bosh kiyimlar (do'ppi, ro'mol, kultapushak).
- Poyabzal.
- Charm buyumlar.

Jamg'armada mahalliy bofandalar tomonidan to'qilgan turli gazlamalar (bo'z, atlas, baxmal, kashta va boshqalar), qolib bosish yo'li bilan tayyorlangan chit namunalari (kashta, so'zana, zardevor, joyshab), jiyaklar o'troq axoli va ko'chmanchi elatlarning bosh oyoq liboslari. Jami eksponatlar soni – 1184 ta.

5. Arxeologiya.

Mezeyning arxeologiya jamg'armasi boy emas. Muzeyda arxeologik shtadining yoqligi muzey qazishmalar o'tqazish uchun litsenziyaga ega emasligi tufayli bu borada to'plash ishlarini yaxshi yo'lga qo'ya olmagan. Jamg'armada mavjud eksponatlarning katta qismi boshqa muzeylardan so'rab olingan. Qo'qonda arxeologik qazish ishlar boshlangandan keyingina bu jamg'arma biroz boyidi. Jamg'armada Qo'qon vohasi, Farg'ona vodiysi o'tmshtan yodgorlik bo'lib qolgan bir muncha eksponatlar bor. Jami eksponatlar soni: 361.

6. Numizmatika jamg'armasi.

Numizmatika jamg'armasida eksponatlar. Ular mohiyati va ishlatilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Jami tangalar – 1224 ta

- Shundan Qo'qon xonligiga oid tangalar – 199 ta.
- Orden va medallar – 364 ta.
- Muhrlar – 20 ta.
- Nishon va ko'krak nishonlari – 108 ta.
- Kredit biletlari – 332 ta.
- Kumush yombilar – 2 ta.

Jamg'armada oltin tangalar umuman yoq, kumush tangalar juda oz miqdorda. Eng noyob eksponatlar – Somoniylar va Qoraxoniylar, Temuriylar, hamda Qo'qon xonligi tangalaridir. Shuningdek, qo'shni davlatlar – Buxoro amirligi va Yetti shahar (Sharqiy Turkiston) tangalari, so'fiylar va mansabdorlarning muhrlari, kumush yombilar ham nodir buyumlar hisoblanadi.

Jami buyumlar soni – 2050 ta.

7. Yozma yodgorlik va hujjatlar jamg'armasi.

Ushbu jamg'arma qog'oz bilan bog'liq bo'lgan barcha eksponatlarni o'z ichiga oladi. Jamg'armada qog'oz ishlab chiqarish xattotlik va kitobot san'atlari, yer suv mulkchilik tarixi, vaqf inistitutlari, qozixona faoliyati, toshbosma, nashriyot, idoralarda ish yuritish, ijtimoiy hayot, ijtimoiy katagoriyalar, madaniy va ma'rifiy hayot o'z aksini topgan.

Bu jamg'armadagi eksponatlarning umumiy soni jamg'arma mohiyat va mazmuniga ko'ra quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- Xonlik davri hujjatlari – 370 ta.
- Qo'lyozma kitoblar – 107 ta.
- Toshbosma asarlar – 368 ta.
- Kirill yozuvidagi nodir kitoblar – 685 ta.
- Vaqtli matbuot nashriyot, broshyura, bukletlar – 1662 ta.
- Kartalar va sxemalar – 114 ta.
- Mustaqillik davri hujjatlari – 4773 ta.
- Boshqa hujjatlar – 243 ta.

Jamg'armadagi eng noyob eksponatlar: XIV asrga oid qo'lyozmalar, Xudayorxonga qarashli Qur'on, qo'lyozma bayozlar, devonlar, xusnixat namunalari, Qo'qon qog'ozi, vaqfnomalar, shajaralar, Qo'qon xonlarining farmon va yorliqlari. Jami eksponatlar soni – 8322 ta.

8. Ashyoviy yodgorliklar jamg'armasi.

Bu jamg'armaga turli materiallardan tayyorlangan ashyoviy yodgorliklar hamda son jihatidan aloxida jamg'arma qilish imkoniyati bo'lmagan jamlanmalar kiritilgan. Bu jamg'armada ham diqqatga sazovor moddiy madaniyat yodgorliklari ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning umumiy soni 1255 tani tashkil etadi.

Muzeyning ilmiy-tadqiqot ishlari tabiat, tarix, san'at bo'limlari; Muqumiy xujra-muzeyi, Hamza uy-muzeyi, Qodirjon Haydarov uy-muzeyi hamda Jome amaliy san'at muzeyi kabi filiallari tomonidan olib boriladi. To'plangan asoratiqalar muzey jamg'armasiga kelib tushib, hisobga olinadi, lozim bo'lsa, ta'mirlanadi, ilmiy jihatdan o'rganilib, tavsiflanadi. Muzeyga tomoshabinlarni jalb etish, mehmonlarga muzey xizmati ko'rsatish, ommaviy-ilmiy tadbirlar o'tqazish ishlariga ommaviy-ma'rifiy bo'lim boshchilik qiladi.

Muzey namoyishgohi quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Qadimgi davr tarixi (milodiy eradan oldingi I ming yillik – milodiy eraning 1876-yilda).
2. Qo'qon XIX asr oxiri – XX asr boshlarida.

3. Qo'qon shahri istiqloq yillarida.
4. Qo'qonliklar turmush tarzi tarixidan (hunarmandchilik, etnografiya).
5. Xon qabulxonasi.
6. Sharq mamlakatlari amaliy san'ati⁴⁴.

Qo'qon madaniyati tarixi Davlat muzeyi O'zbekistondagi ilk muzeylardan biridir. Muzey 1925-yilda sobiq Qo'qon hukmdori Xudoyorxon o'rdasi binosida ochilgan. O'rda majmuasi XIX asrning ikkinchi yarmida qurilgan. Milliy me'morchilikning ushbu yodgorligida an'anaviy amaliy san'atning yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, naqqoshlik, koshinpazlik va boshqa turlari uyg'unlashib ketgan.

Xudoyorxon o'rdasi Qo'qonda bo'lib o'tgan barcha muhim voqealarning tilsiz guvohidir. 1876- yilda Qo'qon xonligi chor Rossiyasi qo'shini tomonidan zabt etildi. Xonlik tugatilgach, o'rda binosiga rus garnizoni joylashtirildi. Salomxona pravoslav cherkoviga aylantirildi, erkaklar va ayollar diniy maktablari ochildi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng, 1920- yillarda bu erda "Qashshoqlar qo'mitasi" va "Qo'shchi soyuzi" idoralari ochildi. 1824-yilda o'rda binosida Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi tashkil etildi. Bir yildan so'ng, 1925-yilda mazkur ko'rgazma negizida muzey ochishga qaror qilindi. Ikkinchi jahon urushi yillarida binoga harbiy hospital joylashtirildi.

Muzey olti bo'limdan iborat: Nashr ishlari bo'limi, Marketing va turizm bo'limi, Ko'chma ko'rgazmalar bo'limi, San'at va etnografiya bo'limi, Tarix bo'limi, Tabiat bo'limi va jamg'arma.

Muzey tarkibida beshta filial mavjud:

- Amaliy san'at muzeyi.
- Qo'qon shahar adabiyot muzeyi.
- Buyuk allomalar muzeyi.
- Muqimiy hujra muzeyi.
- Hamza uy-muzeyi.

Muzey jamg'armasida 47 000 dan ziyod eksponat mavjud bo'lib, ularning har biri

⁵¹ Дадабоев Й. Х. Художон ўрдаси.... – Б. 148.

Qo'qonning boy tarixi, uning o'ziga xos san'ati va madaniyatining yorqin nishonasidir.

Tasviriy san'at jamlanmasi G'arbiy Yevropa, Rossiya, O'zbekiston musavvirlarining rangtasvir asarlari va haykaltaroshlik namunalari bilan tanishtiradi. Qo'lyozmalar va noyob toshbosma asarlar alohida qiziqish uyg'otadi. XVII asrdan boshlab shahar Qo'qon ipak qog'ozi ishlab chiqarish markazi sifatida dong taratdi. Qo'qon xattotlari tomonidan husnixat bilan ko'chirilgan kitoblar yuksak darajada qadrlangan. Xudoyorxonning muhri bosilgan Qur'oni Karim, xonlik Devoni hujjatlari – farmoyishlar, inoyatnomalar, yorliqlar alohida qiymat kasb etadi. Muzey xodimlari katta miqyosda ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ma'rifiy ishlar olib boradilar: Qo'qon shahri va Qo'qon xonligi, mustamlaka davri, 1930-yillardagi siyosiy qatag'on, shahar va uning deparasi toponimikasi, mahallalar tarixi hamda tadqiqot va ilmiy-ma'rifiy ishlar olib boradilar: Qo'qon shahri va Qo'qon xonligi, mustamlaka davri, 1930-yillardagi siyosiy qatag'on, shahar va uning deparasi toponimikasi, mahallalar tarixi hamda shaharning bugungi kuni tadqiq etilmoqda. Muzey jamg'armasi har yilda turli eksponatlar bilan boyitib borilmoqda. Muzey va uning filiallarini yildaga 150 mingdan ziyod kishi: chet ellik sayyohlar, moziy shinavandalari, maktab o'quvchilari, talabalar ziyorat qilishadi. Muzeyda turli jamoat tashkilotlari, madaniyat uylari, kutubxonalar, o'rta va oliy o'quv yurtlari, maktablar bilan hamkorlikda ko'rgazmalar, ilmiy konferensiyalar, seminarlar, mavzuviy anjumanlar, atoqli kishilar bilan uchrashuvlar, ko'riklar, festivallar va xalq sayillari o'tkazib turiladi.

1939-yilda Muqimiy hujra-muzeyi tashkil qilingan. Muzey faoliyatini uzoq yillar mobaynida O'zbekiston xalq shoiri va xattot, Charxiy Domla (Asqarali Hamroaliyev) boshqargan. O'zbekistonning aksariyat shoir va yozuvchilari muzeyni ziyorat qilishni o'zlari uchun burch deb biladilar.

Muzey namoyishgohi Qo'qon adabiy muhitining Muqimiy davri haqida hikoya qiladi. Unda Mavlono Muqimiy hayoti, ijodiy faoliyati aks ettirilgan. Namoyishgohning o'zagini Muqimiy hujrasi intereri tashkil etadi. Interr Muqimiy yashagan davr asosida jixozlangan. Hujra-muzeyda, shuningdek, Furqat, Zavqiy,

Charxiy hayotlari va ijodilariga bag'ishlangan bo'lmalar, madrsa hayotiga oid interer ham bor.

Hamza Hakimzoda Niyoziy tug'ilib o'sgan bu qutlug' dargoh O'zbekiston hukumatining qaroriga binoan 1959-yilda uy-muzeyga aylantirildi. 1989-yilda nishon-langani Hamza tavalludining 100 yilligi munosabati bilan uy-muzeyda katta hajmda ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Uy-muzeyni aylanib ko'rar ekansiz, o'zingizni bundan yuz yilcha oldingi davrga borib qolganday his qilasiz. Xonalarning ichki ko'rinishi ham, ulardagi nodir buyumlar ham sizga o'zbek ziyoli xonadoni turmushidan hikoya qiladi.

Qo'qon adabiyot muzeyi 1961-yil 3-martda O'zbekiston hukumatining qarori bilan tashkil qilingan. 1961–1978-yillarda muzey O'zbekiston Fanlar akademiyasi tasarrufida bo'ldi. 1979-yilda muzey respublika Madaniyat vazirligi tasarrufiga o'tkazilib, 1979-yil 1-apreldan G'.G'ulom nomidagi Farg'ona viloyat adabiyot muzeyiga aylantirilgan. 2018-yil 1-martdan boshlab Qo'qon madaniyati tarixi davlat muzeyi filiali Qo'qon adabiyot muzeyi deb yuritila boshladi. Adabiyot muzeyi 1911-yilda qurilgan sobiq Rossiya davlat banki binosida joylashtirilgan. Bino "Tarixiy va memoriy yodgorliklar" ro'yxatiga kiritilgan.

Muzey ekspozitsiyasidagi materiallar hayoti va ijodi Qo'qon shahri bilan bog'liq bo'lgan 60 dan ortiq shoir va yozuvchi-lar haqida xronologik tarzda atroflicha malumot beradi. Materiallar asosan XVIII asrdan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Muzey fondida bugungi kunda 15 mingdan oshiq eksponat saqlanadi. Bularnoyob qo'lyozma va toshbosma kitoblar, xalq amaliy sanati namunalari, nodir tarixiy hujjatlar, suratlar, shoir va yozuvchilarning shaxsiy buyumlaridan iboratdir. Bularning ichida qo'lyozmalar 2 mingtadir. Qo'lyozma-lar arab, fors, turkiy tillarda bo'lib, ular XV–XX asrlar davomida kitobat qilingan.

Buyuk allomalar muzeyi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 22–23-iyun kunlari Farg'ona viloyatiga qilgan tashriflarida bergan topshiriqlariga asosan barpo etildi.

Muzey ekspozitsiyasi 5 qismdan iborat bo'lib, 3 qavatda joylashgan.

- I. Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyat.
- II. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat.
- III. XVIII–XIX asrlarda ilm-fan va adabiyot.
- IV. Milliy uyg'onish (jadidlik) davrida ilm-fan va adabiyot.
- V. XX asrda ilm-fan va madaniyat.
- VI. "Allomalar vorislari" nomli o'quv-axborot markazi.

I-qismda, ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi buyuk allomalar hayoti, ilmiy ijodiy faoliyatiga oid ma'lumotlar, ular yaratgan asarlarining noyob qo'lyozma nusxalari namoyish etilmoqda.⁴⁵ Inson qalbiga sayqal berish jatumani esa ma'rifat deyiladi. Ma'rifat - ma'naviyat sari eltuvchi yo'llardan iborat. Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy, uni muqarrar xalokatdan asrab qoluvchi kuch hamma'rifatdir⁴⁶.

II qismda Temuriylar davrida yaratilgan ilm-fan va madaniyatga doir osori-atiqalar, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Sa'diddin Taftazoniy, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Mirxond, Alisher Navoiy, Xoja Ahror Valiy, Mahdumi A'zam, Zahiriddin Muhammad Bobur va tojik adibi Kamol Xo'jandiy kabi allomalarga oid tarixiy asarlar namoyishga qo'yilgan.

Shuningdek, xalq taqdirida muhim o'rin tutadigan buyuk zotlar ham mukammal fazilatlar timsoliga aylanib qoldi. Masalan, Soxibqiron Amir Temur, Sulton Jaloliddin Manguberdi, Bobur kabi ajdodlarimiz mardlik, botirlik, rahbarlik borasida. Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Najmiddin Kubro singari aziz avliyolarimiz dinu-diyonat bobida, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bexzod, Ogahiy kabi mutafakkirlarimiz donishmandlik, ma'naviyat va insonparvarlik borasida barchamiz uchun komillik timsoliga aylanib qolgan⁴⁷.

III-qismda, XVIII–XIX asrlarda Farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan

⁵² Qo'qon madaniyati va davlati muzeyi joriy arxivi ma'lumotlari. 2019-yil.

⁵³ Исоков Б. Жамият тараққиётининг асоси. – Наманган, 2007. – Б. 12.

⁵⁴ Қаршибоев М., Мусурмонова О. Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари. – Тошкент, 2001. – Б. 9.

Mashrab, Huvaydo, Sadoyi, Nizomiy Xo'qandiy, Azimiy, Uvaysiy, Amiriy, Nodira, Hakimxon To'ra, Gulxaniy, Fazliy, Muhyi, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Mahmud Hakim Yayfoniy, Haziniy kabi ulug' siymolar hayoti, ijodi yoritilgan.

IV qismda Turkistonda jadidchilik harakati va uning mashhur namoyandalari Behbudiy, Fitrat, A. Avloniy, H. H. Niyoziy, A. Zohiriy, I. Davron, I. Ibrat hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. Shuningdek, bu qismdan Qo'qon xattotlik san'ati, milliy hunarmandchilik hamda ziyoratgohlarga doir ma'lumotlar va eksponatlar joy egallagan.

V-qismda, XX asrda Farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan ulug' olimlar - akademiklar: Qori Niyoziy, M. O'rozboyev, T. Zohidov, J. Saidov, A. Muhammadiev, R. Aminova, P. Qayumov, Boki, M. Rahmonov, A. Qayumov, L. Qayumov, M. Xayrullayev, G'. Abdurahmonov va boshqalarning hayoti va ilmiy ijodiy faoliyatini aks ettiruvchi materiallar va eksponatlar o'rin olgan. Shuningdek, muzey qoshida "Allomalar vorislari" nomli o'quv-axborot markazi tashkil etilgan bo'lib, bu markaz ilmga va ijodiy faoliyatga qiziquvchi yoshlar uchun mahorat maktabi vazifasini o'taydi⁴⁸.

Shunga ko'ra milliy-ma'naviy meros millatning bevosita o'ziga tegishli bo'lgan boylik hisoblanadi. Shuning uchun ham u millatning taraqqiy qilishida unga g'oya va tajriba manbai bo'lib xizmat qiladi⁴⁹. Prezidentimizning quyidagi so'zlari ham buni tasdiqlaydi, 'Biz bugun ayrim davlatlardan moddiy nuqtai orqaroqda bo'lsak- da, ma'naviyat nuqtai nazardan qaraganda, ulkan g'urur bilan aytishimiz mumkin: buyuk ajdodlarimizdan qolgan qadriyatlar va urf-odatlariga, nasl-nasabimiz va qonimizga singib ketgan buyuk hayotbaxsh kuchga egamiz. Bu boradagi ustunligimiz butun ma'rifiy dunyoda e'tirof etilgan. Ana shu qutlug' merosga munosib bo'lib yashash, bu beqiyos boylikni yanada boyitib-rivojlantirib, milliy o'zligimiz va umuminsoniy qadriyatlar asosida kelajagimiz binosini barpo etish muqaddas burchimizdir'⁵⁰.

Jome masjidi. Manbalarda masjid minorasi qurilgan yillarda tafovut bor.

⁵⁵ Qo'qon madaniyati va davlati muzeyi joriy arxivi materiallari.

⁵⁶ Хайитов З. Маънавий мерос ва миллий ўзликни англаш // Тафаккур. – 2007. – №3. – Б. 112.

⁵⁷ Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт... – Б. 31.

Masjid qurilishi qalamga olingan manbalarda uning minorasi alohida eslatilmaydi. Bu tabiiy hol, zero masjidlarni, ayniqsa, Jome' masjidlarini minorasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mualliflar minora ham masjidning ajralmas inshooti bo'lganligi uchun uni alohida eslatmagan bo'lishlari mumkin. Manbashunos olim, filologiya fanlari nomzodi Adulatif Turdaliyev 'Qo'qon sadosi' gazetasining 2004-yil 1-apreldagi sonida bir qo'lyozma bayozdagi muallifi noma'lum she'riy tarixga tayanib, '...minora 1874-yilda, Mallaxon va Xudoyorxon hukmdorligi oralig'ida qurilgan, - deb hisoblaydi.

Tarixdan ma'lumki, Mallaxon va Xudoyorxon hukmdorliklari oralig'i 1862-yildir. Aftidan, tarix muallifi ta'mirni qurilish deb hisoblagan bo'lishi mumkin. Chunki, inshoot 1855–1856-yillarda Xudoyorxon tomonidan tubdan ta'mirlangan. Shuningdek, mazkur she'riy tarix 'Tarixi mezanai masjidi Jome' Ho'qand', - deb nomlangan. Mezana – minoraning eng ustki qismi bo'lib, muazzin azon aytishi uchun mo'ljallangan. Bu tarix mavjud minoraga yangidan mezana qurilishini ko'rsatishi ham mumkin. Qurilishga o'z zamonasining yirik me'mori, allomasi va shoiri bo'lmish Mulla Xudoyor Istravshaniy Mahviy boshchilik qilgan. Fazliyning 'Majmuai shoiron' asarida keltirilishicha, Jome' masjidi qurilishiga Mahviy sarkor etib tayinlangan va uning qo'lida ikki yuz nafar moniysifat me'morlar ishlaganlar. Bino tarxini Mahviy o'zi tayyorlagan. Inshoot tavsifiga kirishar ekanmiz, u nafaqat Jome' masjidi, balki madrasa vazifasini ham o'tashi lozimligi mo'ljallanganligini eslatib o'tishimiz joiz. Aksariyat manba'larda u 'Madrasai Jome'' nomi bilan yuritiladi.

O'sha davr manba'larini qiyosiy o'rganish jatumanida Jome' inshooti quyidagi tarxda bo'lganligi aniqlandi:

Inshooat Murabba' (kvadrat) shaklida bo'lib, g'arb tomonini masjidning asosiy qismi – ayvon va xonaqoh egallagan. Qolgan 3 tomonida darvoza va eshiklar, hujralar, darsxonalar, xo'jalik binolari, tahoratxonalar va boshqa zaruriy binolar bo'lgan. Farg'ona viloyati halq o'quv yurtlari nazoratchisi F. Egorov va 'Sadoyi Farg'ona' ro'znomasi xodimi Yusufxon Mirzo tomonlaridan 1914-yilda

tuzilgan hisobotda Jome' madrasasida yuzta hujra bo'lganligi va ularda 220 tolibi ilm istiqomat qilganligi qayd etilgan).

Masjid hovlisining qoq o'rtasida balandligi 22,5 metr keladigan minora qad ko'targan. Minoradan har to'rt taraf tashqi devorigacha bo'lgan masofa roppa-rosa 44 metrdir. Minora uchi qirqilgan konus shaklida bo'lib, yuqori qismi, ya'ni mezanasi 6 qirralidir. Yuqoriga chiqish uchun aylanma zinapoya qilingan. Minora musulmon g'isht bilan urilgan. Naqsh va bezaklardan holi.

1905–1907-yillarda Qo'qonning mo'tabar kishilaridan bo'lmish Mirhabibboy tashabbusi bilan masjid binosi hashar yo'li bilan ta'mirlandi. Ta'mir jatumanida ustunlarning ayrimlari almashtirildi, naqsh-nigorlari yangilandi. Lekin, malakasi turli darajada bo'lgan ustalarning ishtiroki oqibatida, eski go'zal naqshlar ustudan yangi yaltiroq, biroq sifatsiz naqshlar solindi. Hujralarning bir qismi buzib qo'yildi-yu, yangidan qurilmadi.

Madrasa 1918–1919-yillargacha, masjid qismi esa 1928-yilgacha ishlab turdi. So'ngra, 'madaniy inqilob' deb atalmish buzg'unchilik kampaniyasida Jome' masjid-madrasa majmuasining katta qismi, chunonchi, hujralar, darsxonalar va xo'jalik binolari buzib yuborildi. Faqat ayvon va xonqohgina saqlanib qoldi. Inshoot qoldiqlari, 'Ayvon va honaqoh' turli artellarga foydalanishga berildi. Keyinroq, shahar savdo idorasi ixtiyoriga berilgan. Ayvonlarining oldi devor bilan to'silib, poyafzal omboriga aylantirildi. Masjid hovlisida esa chayqov bozori ochildi. 1960-yillarda hovli qismidan chayqov bozori ko'chirilib engil do'konlar qurildi va doimiy savdo yarmarkasiga aylantirildi.

Nihoyat, 1975–1982-yillar mobaynida oxirgi ta'mir, to'g'rirog'i, qurilish ishlari olib borildi. Poyafzal ombori ko'chirilib, ayvon oldi ochildi va ayvon hamda xonaqoh to'liq ta'mirlandi. Ezgu maqsad bilan boshlangan bu ish, afsuski, ilmiy jamoatchilikdan bemaslahat olib borildi. Shaharning o'sha paytdagi rahbarlari, ayrim 'mutaxassislar' maslahati bilan, shaharga turistlarni jalb qilish maqsadida Jome' masjidi hovlisida qo'qonning kichraytirilgan nusxasi, hozirgi til bilan aytganda 'Мини Коканд' loyihasini yaratish ishiga kirishdilar. Masjid-madrasa majmuasining qadimiy qiyofasini tiklash o'rniga savdo do'konlari,

choyxona, oshxona, xunarmandchilik rastasi, yaratilajak muzeyning ma'muriy binosi quramasidan iborat bir inshoot tiklandi. Bu inshootga 'Havokand' deb nom berishdi va bino peshtoqiga shu nom yozib qo'yildi. 'Havokand' so'zi shaharning manba'larida keltirilgan eski nomining noto'g'ri o'qilishi oqibatidir. Barcha manba'larda shahar nomi 'Xo'qand' shaklida keladi. Shahrimiz ziyolilari bu borada bir necha marta bong urishdi, biroq natija bo'lmadi. Hali ham kech emas, bino peshtoqidagi koshin bilan yozilgan 'Xavokand' so'zini olib tashlab, o'rniga koshindan kompozio'iya yaratish kerak. Hech qanday yozuvning hojati yo'q⁵¹.

Xulosa qilib aytadiga bo'lsak, Jome' masjidi nafaqat me'morchilik obidasi, balki, tarixiy yodgorlik sifatida ham qadrlidir. Mamlakat, shahar taqdirini hal qiluvchi xalq yig'inlari shu erda bo'lib o'tgan. Dushman bostirib kelganda xalq mudofaachilari shu yerda to'planib, ikki rakaat nomoz o'qib, shu erdan jangga jo'naganlar. Qo'qon Muxtoriyati hukumatining yig'inlari, xalq bilan muloqotlari shu yerda o'tkazilgan.

2.3. Marg'ilon shahar madaniyati va tarixi davlat muzeyi

Farg'onaning qadimgi va navqiron shaharlaridan biri - Marg'ilondir. Bu ko'xna shahar manbalarda Marg'inon va Margilon nomlari bilan qayd qilingan. Shaharning vujudga kelishi haqida turli-xil ma'lumotlar bor. Ishoqxon Ibratning bergan ma'lumotlariga qaraganda : 'Ajoyib ul-buldon'da masturdurki, Farg'ona iborati har xonadur. Xazrat Iskandar zamonlarida Atssoi sharifga borgonlarida Farg'ona yerida bir-ikki adad forsison din muxojir bo'lib kelib, ul turgon bechora dexqoni bor ekon. Podshoxga arzi axvol qilmoq bo'lib, peshlash uchun non-tuz o'rniga bisotlaridagi tovuqlarini pishurib non ilan xazrat Iskandarga tutgon ekonlar. Anda xazrat Iskandar savol qilibdurlarki: 'Bu nimadur?' deb. Anda arz qilguvchi forsiylar javob beribdurlarki: 'Murgu non'. Ya'ni tovuq ilan non deganlarida, podshox Iskandar: 'Arzlaringiz nimadur?' deganda, 'Arzimiz: bul turgon joyimizni shahar qilib bersangiz ekon' degonlarida umarolari ichindan bir bofarosat sohibi oqil kishini ta'yin qilib, shahar qilmoqqa amr qilgon ekonlar. Ul

⁵¹ Qo'qon madaniyati va davlati muzeyi joriy arxividan.

kishini oti Farg'ona bahodir ekon. Ul kishi necha yillar harakat qilib, har shahardan, har xonadan odam olib kelganlar, otini Har xona deb suyub, Har xonani Pargona deb atab va ham ul muassis kishini ismini suymoq bo'lib, Farg'ona shuhrat topgan, ammoki alholda Marginon derlar. Ushal tovuq ilan non tutgan yerdur Marg'inon shahri ismi bo'lib, Farg'ona umumiy aytiladigan ismdur. Chunonchi, bunga dalil Marg'inonda podshox Iskandar degan iydgox mazor bordur. Ul kishi tushgan yerlar budur⁵².

Tilshunoslarning fikricha, shaharning nomi ikki bo'gindan iborat bo'lib, birinchi bo'gini - 'marg'' ko'kalamzor, yaylov, maysazor degan ma'noni anglatadi. E'tiborli tomoni shundaki, bu ko'rinishdagi toponimik nom O'rta Osiyoda keng tarqalgan. Marg'ilonning nomi bilan bog'liq bo'lgan va xalq orasida keng tarqalgan rivoyatda hikoya qilinishicha, shaharga Aleksandr (Iskandar) Makedonskiy tomonidan nom qo'yilgan. Rivoyatga qaraganda, bu yerda yashovchi axoli Aleksandr Makedonskiyni 'marg'u non', ya'ni tovuq va non bilan kutib olgan ekanlar. Bunga javoban Aleksandr Makedonskiy bu joyga 'Marg'inon' deb nom ko'ygan ekan⁵³.

O'rta Osiyoning Ko'pgina qadimgi shaharlaridan farqli o'laroq Marg'ilon o'zining 2000 yillik tarixi davomida bir joyda joylashgan va taraqqiy etgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning sa'y-harakatlari bilan qadimiy shaharlar: Xiva, Buxoro, Shahrisabz, Termiz shaharlarining 2500–2700-yillik yubileylarinig o'tkazilishi, Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy, Jaloliddin Manguberdi, Kamoliddin Behzod, Ogahiy kabi 'Barhayot siymolar' yubileylarining o'tkazilishi, 'Alpomish' dostoni yaratilganligining 1000-yillik tantanalari, Marg'ilon shahrining 2000-yillik yubileylari, mamlakat tarixidagi muhim sanalarga bag'ishlab muzeylar tayyorlab o'tkazgan ko'rgazma va tadbirlar yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida muhim o'rin egallashi shubxasiz. Sohibqiron Amir Temur dahosi bizga ajdodlar ruhini yod etish, ular xotirasini

⁵⁹ Исхокхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона.... – Б. 3.

⁶⁰ Yuqoridagi asar... – Б. 279.

abadiylashtirish sabog'ini berdi. Zero, bobokolonimizning 'Aziz avliyolar', sahobalar maqbaralarini, qutlug' qadamjoylarni ziyorat etishni ham farz, ham qarz deb bilur edim' - degan gaplari bugungi kunda yurtimizda ulug' ajdodlarga, allomalarimizga munosabatlarimizning tarixiy uyg'unlikda o'z ifodasini topmoqda. Amir Temurning tarixiy xizmati, uning insoniyat tarixida tutgan o'rni, jaxon ijtimoiy-siyosiy jatumanlariga ta'siri nihoyatda chegarasiz⁵⁴.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, qadimgi shahar hozirgi Marg'ilon shahrining Ma'shad mahallasi hududida joylashgan tepalik o'rnida bo'lgan. Qadimgi shahar 20 gektar maydonni egallagan bo'lib, u xukmdor qarorgoxi arki a'lo va bevosita shahardan iborat bo'lgan. Bu shahar Farg'onaning asosiy shaharlaridan biri bo'lib, bu yerda xunarmandchilik ancha taraqqiy qilgan. Ayniqsa, shaharda xunarmandchilikning kulolchilik soxasi yaxshi rivojlangan. Milodning II asrlariga kelib shahar hududi yanada kengaygan. Bu davrda shaharda mafkuriy markaz – mahobatli otashparastlar ibodatxonasi bunyod etilgan. Shaharning tez sur'atlar bilan rivojlanishi Buyuk ipak yo'li bo'ylab harakat qilayotgan savdo karvonlarining Marg'ilon orqali o'tishi uchun zamin yaratgan. VII asr boshlarida arab qo'shinlarining Farg'onaga bostirib kirishi natijasida vodiyni boshqa shaharlari kabi Marg'ilon ham tanazzulga yuz tutdi. Lekin, ko'p o'tmay, shaharda hayot o'z iziga tushdi⁵⁵.

Ikki ming yildan ko'proq vaqt oldin asos solingan shahar mustaqillik yillariga aylandi. Qadimgi me'morchilik obidalari tiklandi va rekonstruksiya qilindi, shu jumladan, Said Ahmad Xoja Eshon madrasasi, Qottarli Mozor maqbarasi. Hayoti va faoliyati qadimiy shahar bilan uzviy bog'liq bo'lgan taniqli o'zbek shoiri Uvaysining uy muzeyi tashkil etildi. 16 gektardan ortiq maydonda favvoralar joylashgan ajoyib bog' bor. Uning hududida O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning uy muzeyi, taniqli shoirning haykali joylashgan. Marg'ilon shahrining tarixi muzeyi ochildi, maktablar, litseylar, kollejlari, uy-joylar barpo

⁶¹ Ahmadaliyeva L. Faxr, g'urur, qudrat timsoli // Iqtisodiyot va soliq. 2009 yil 10-aprel.

⁶² Алимова Д., Пидаев Ш. Марғилон шаҳрининг жаҳон цивилизацияси тарихида тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 7.

etildi. Shahar bozorida yana ishtiyoq uyg'ondi, hafta ichi va dam olish kunlari ko'payib ketdi.

Butun musulmon dunyosiga mashhur bo'lgan buyuk ilohiyotchi Burhoniddin Marg'iloniyning yodgorlik majmuasini qurish katta voqea bo'ldi. Shaharning o'ziga xos xususiyatiga aylangan majmua.

Mustaqillik yillarida xususiy tadbirkorlik va hunarmandchilik keng rivojlandi. Asrlar mobaynida bugungi kunda Marg'ilon hunarmandlar shahri - Chitgar (printerlar), Qandakor, Misgar (jarroh), Zargar (zargar), Kashmir (kashtachilar), hunarmandchilik sirlari avlodga nasl. Kasb-hunar - qo'l san'atlari, hunarmandlar, Marg'ilon hunarmandlari haqiqiy san'atga qurilgan.

Marg'ilon - ipak shahri. Yigirmanchi asrning boshidanoq, 1200 dan ziyod ustaxonalar mavjud bo'lib, unda tabiiy ipak saten, adras, bekasam, Kan'on, harir va boshqalardan yasalgan matolar yog'och dastgohlarda qilingan. Bugungi kunda milliy matolarimizning ko'zni qamashtiruvchi ranglari mamlakat chegaralaridan tashqarida ma'lum. Ular nafaqat bilishgan, balki kamalak rangli matolardan tikilgan narsalar ham giyishadi - liboslar, ko'ylaklar, ko'ylaklar, sharflar... Marg'ilon hunarmandchiligi chindan ham mashhur emas.

Eng asosiysi, qadim zamonlarda tug'ilgan milliy hunarmandlar yangi davrda - mustaqillik davrida yashash va rivojlanishda davom etmoqda. Biroq, sanoat, biznes, qurilish, iqtisodiyotning boshqa sohalari va madaniyati kabi⁵⁶.

Marg'ilon shahar tarixi muzeyi dastlab O'zbekiston Respublikasiga 1925-yildan 1943-yilga qadar rahbarlik qilgan atoqli davlat arbobi – Yo'ldosh Oxunboboyevni xotirasini abadiylashtirish va O'zbekiston Respublikasining tashkil topganiga 40 yil to'lishi munosabati bilan O'zbekiston Ministrlar Sovetining 1964-yil 17-oktyabr kungi qarori bilan Y. Oxunboboyev memorial muzeyi sifatida Marg'ilon shahrida tashkil etilgan.

Muzey 1978-yilga qadar O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyining filiali sifatida, 1978-yildan boshlab Farg'ona viloyat O'lkani o'rganish muzeyining filiali sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

⁵⁶ www.Ferpravda.uz.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning "Marg'ilon shahrining 2000 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 2005-yil 9-noyabrdagi qaroridan kelib chiqqan holda qabul qilingan Farg'ona viloyat hokimining 2006-yil 14-mart kungi 69-sonli qarori asosida Marg'ilon shahrida faoliyat ko'rsatayotgan Y.Oxunboboyev memorial muzeyi hamda Adabiyot va san'at muzeylari negizida Marg'ilon shahar tarixi muzeyi tashkil etildi.

Muzeyning hozirgi kundagi foydalanib kelayotgan binosi 1974-yilda qurib bitkazilgan. 2007-yilda Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileyi arafasida muzey binosi mukammal ta'mirlandi, ekspozitsiyasi yangitdan jihozlandi. Muzeyimiz zahirasida xalqimizning tarixi, turmush madaniyatidan xikoya qiluvchi 6000 dan ziyod asori atiqalar saqlab kelinmoqda.

Marg'ilon shahar ijroiya qo'mitasining 1971-yil 29-sentyabr kungi 558-sonli qarori bilan muzey uchun jami 0,7 ga yer maydoni ajratildi. Lekin shu kungacha muzey yer maydoni aniq chegarasi belgilanmagan. Foydali yer maydoni yubeley munosabati bilan qurilgan qo'shimcha binolar bilan qo'shimcha 590 kv.m. tashkil etadi.

Muzey binosi 2 qavatli bino bo'lish bilan birga ma'muriy xonalar joylashgan yarim yerto'la (sokol) qismdan iborat. Muzeyning 114 kv.m hajmli faesi, 99 o'ringa mo'ljallangan kinozali va jami 587 kv.m. maydonli 6 ta ko'rgazma zallari mavjud bo'lib, ularning 2 tasi 1-qavatda, 4 tasi 2-qavatda joylashgan.

Marg'ilon shahar muzeyining 6 ta ko'rgazma zali mavjud. 4 ta doimiy ko'rgazma zallari muzeyning 2 qavatida joylashgan. 2 ta o'zgarib turuvchi ko'rgazma zali muzey binosining birinchi qavatida joylashgan. Muzeyning birinchi qavatida 2 ta ko'rgazma zaldan tashqari majlislar zali va 115 kv.m. hajmli foyesi bor. Muzey binosining "soqol" qismida ma'muriy xonalar, zaxira xonalar hamda sanuzel qismi joylashgan⁵⁷.

Muzey ekspozitsiya "Qadimgi va antik davr", "O'rta sarlar", "XIX–XX asr - larda Marg'ilon", "Marg'ilon Mustaqillik yillarida", "Marg'ilon hunarmandlar shahri" hamda "Mening Marg'ilonim" nomli qismlardan iborat. Unda Marg'ilon

⁵⁷ Marg'ilon madaniyati va tarixi muzeyi joriy arxividan.

tarixining eng qadimgi davridan hozirgi porloq kunlarimizgacha bo'lgan davri xikoya qilinadi. Ekspozitsiya Marg'ilon atroflaridan topilgan noyob eksponatlar bilan boyitilgan. Shaharning mazmunli va takrorlanmas tarixi ushbu eksponatlar vositasida keng ochib berilgan. Ekspozitsiya va ushbu muzey kollek-siyasi nafaqat oddiy tomoshabin uchun, balki arxeologiya, tarix, san'at, madaniyat, shaharsozlik, ta'lim va boshqa yo'nalishda shug'illanuvchi mutaxassislar uchun ham muhim manba sifati-da ahamiyatlidir⁵⁸.

Muzeyning shtat birligi 21 ta. Marg'ilon shahar tarixi muzeyidagi jami eksponatlar soni 6421 (asosiy fond 5873 ta, yordamchi fond 548 ta) ta.

Marg'ilon shahar tarixi muzeyi Farg'ona viloyat tarixi va madaniyati tarixi davlat muzeyining filiali hisoblanadi. Muzey mudiri G'anijon Alijonov hisoblanadi⁵⁹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Marg'ilon shahar tarixi va madaniyati muzeyi hozirgi kunda o'z faoliyatini takomillashtirib bormoqda. Bu yerda saqlanayotgan buyumlarning aksariyati Marg'ilon shahrida yashovchi aholining qadimdan davom etib kelayotgan an'analari, urf-odatlar, milliy hunarmandchilik buyumlari, kashtachilik, do'ppichilik, milliy kiyinish an'alarini o'zida aks ettirgan eksponatlar saqlanib kelinmoqda va bularning barchasi muzey muhofazasiga olingan.

⁵⁸ <http://storage.museumfergana.uz/source>.

⁵⁹ Marg'ilon madaniyati va tarixi muzeyi joriy arxividan.

XULOSA

Farg'ona viloyati o'lkashunoslik muzeyi o'z o'lkasini tarixini, tabiatini, san'atini mahalliy xalqlarning urf-odatleri va umumiy hayotini o'rganib namoyishgohlarda shu ko'rinishlarni aks ettiruvchi ilmiy-oqartuv muassasa hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida madaniy merosni saqlash muhim vazifalardan biriga aylanib borishi ham jahondagi har bir xalqning o'z tarixi va madaniyatini chuqurroq anglab yetayotganidan dalolat beradi. Jamiyatdagi va madaniy sohadagi o'zgarishlar madaniy meros tushunchasini ham o'zgartirib bormoqda. Muzey va jamiyat o'rtasidagi uzviy aloqa madaniy merosning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Hozirgi zamon sharoitida madaniy yodgorliklar alohida ahamiyatga ega bo'lib, bugungi ijtimoiy madaniy jatumanlarning faol ishtirokchisi ekanligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Respublikamiz mustaqilligiga bag'ishlangan "Mustaqillik yo'lidan" ko'rgazmasi esa vodiymizda istiqlolning sharofati tufayli yuz bergan tarixiy voqealar, hayotimizga kirib borayotgan yangiliklar, iqtisodiyotimizdagi, sanoatimizdagi o'sish, madaniyat-fan, maorif, mahalla, oila va maktab o'rtasidagi bog'lanishlar haqidagima'lumotlarni kengaytirib, yurtga, ilm-fanga, milliy urf-odatlarimizga bo'lgan mehr va muhabbatni oshiradi, mustaqillikni bizga bergan bu yorqin kelajagini asrashga, istiqlolning qadriga yetishga yanada ko'proq davit etadi. Farg'ona vodiysi respublikamiz javohiridir. Bu borada ilmiy xodimlarimizning ko'plab ma'ruzalari ham borki, bular yosh avlodni milliy ruxda tarbiyalashga katta omil va pedagoglar uchun ko'makdir. "Milliy urf-odat haqida", "Farg'ona tarixidan", "O'zbekiston mustaqillik yo'lidan", "Amir Temur", "Farg'ona vodiysi tabiati", "Farg'onaliklar frontda va front ortida" va ko'plab ma'ruzalar, xodimlarimiz tomonidan o'tkazilayotgan mazmunli ekskursiyalar, o'quvchi yoshlar bilan olib borilayotgan suxbatlar shular jumlasidandir.

Muzey xodimlari tomonidan uyishtirilgan "Vodiy tabiati to'g'risida", "Rassom va zamol", "U. Yusupov hayoti va faoliyati", "Hamza va u yashagan davr", va yana boshqa ko'plab mavzulardagi ma'ruza va suhbatlar ham boy mazmunga ega bo'ldi.

Bundan tashqari muzeyimizning mustaqil respublikamiz hayotidagi ayrim tarixiy sanalar, mustaqillik yo'lida xormey-tolmey xizmat qilayotgan kishilar haqidagi milliy bayramlar, "Mahalla, oila va maktab" mavzularidagi qiziqarli tadbirlarimizdan ham xuzurimizga tashrif etuvchilar soni oshib, muzeyga bo'lgan qiziqish yanada ortib bormoqda. Shuningdek, "Muzeylar kuni" ning maktabgacha tarbiya, maktab va bilim yurtlarida o'tkazilishi esa muzey bilan yosh avlod o'rtasidagi aloqani mustahkamlamoqda. Muzeyda ilmiy-metodik konfrensiyalar o'tqazib borilishi ham muzey xodimlari va pedagoglar o'rtasidagi bog'liklikga ega misol bo'la oladi.

Farg'ona viloyatidagi muzeylarni o'rganish natijasida quyidagi **takliflar** vujudga keldi:

- Farg'ona muzeylarini texnik ta'minotini yanada yaxshilash va ko'rgazmalarni tomashabinlarga yaxshi ko'rinishi uchun zamonaviy yoritish moslamalaridan foydalanish lozim,
- muzey eksponatlarini yanada boyitish ishlarini davom ettirish va qadimiy manzilgohlarda arxeologik ishlarni yanada kengaytirish,
- Farg'ona muzeylarida saqlanayotgan buyumlarni O'zbekistonning boshqa viloyatlarida saqlanayotgan buyumlar bilan birgalikda tashkil etish va bu ko'rgazmalarni xalqaro miqiyosda namoyish etish,
- viloyatda faoliyat yuritayotgan uy muzeylari va jamoat muzeylarini faoliyatini yanada takomillashtirish,
- muzeylarni tomosha qilishni va qadimiy yodgorliklar bilan tanishib borishni ommaviy an'anaga aylantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

I. Bitiruv malakaviy ishi uchun nazariy asos bo`lgan adabiyotlar ro`yxati:

- 1.1. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. том–5.—Т.: Ўзбекистон, 1997.
- 1.2. Каримов И. А. Юсак маънавият – йенгилмас куч.—Т.: Маънавият, 2008.
- 1.3. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарк, 1998.
- 1.4. Каримов И. А. Ўзбекистон XIX аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
- 1.5. Каримов И. А. Озод ва обод Ватан эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
- 1.6. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
- 1.7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг 2017-йил 31-майдаги “Маданият ва санъат соҳасини ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-3022 сонли қарори / lex.uz.
- 1.8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Республика музейлари фаолиятини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1994 йил 23-декабрдаги 618-сонли Қарори.
- 1.9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 12 январда қабул қилинган “Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони / Халқ сўзи. 1998 йил 13 январь.
- 1.10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2017–2027-йилларда давлат музейлари фаолиятини такомиллаштириш ва моддий-техник

базасини мустаҳкамлаш бўйича комплекс чора тадбирлар дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги 975-сонли қарори / гов.уз.

II. Adabiyotlar:

2.1. Алимова Д. А. Пидаев Ш. Р. Марғилон шахрининг жаҳон цивилизацияси тарихида тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 2007.

2.2. Аҳмадалиева Л. Фахр, ғурур, қудрат тимсоли // Иқтисодиёт ва солиқ. 2009 йил 10 апрель.

2.2. Бартольд. В. В. Сочинения. Часть 2. – Москва, 1964.

2.3. Баҳриддинов О. Музейлар тарихимиз гувоҳи // Наманган ҳақиқати. 2004 йил 10 март.

2.4. Дадабоев Й. Х. Худоёрхон ўрдаси. – Наманган, 2016.

2.5. Иванов Г. П. Фарғона ўлкашунослиги. – Фарғона, 1996.

2.6. Исоқов Б. Жамият тараққиётининг асоси. – Наманган, 2007.

2.5. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Т.: Маънавият, 1991.

2.7. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Т.: Маънавият, 2005.

2.8. Караманова Г. К. Музейшунослик. – Нукус, 2007.

2.9. Набиев Х. Маънавиятимиз сабоқлари. – Наманган, 2002.

2.10. Писарчик. А. К. “Некоторые данные по исторической топографии городов Ферганы”. – Сталинабад, 1956.

2.11. Раҳимов Ф. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда музейлар фаолияти: шаклланиши, ривожланиши ва истиқболи масалалари / Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. 10 китоб. –Тошкент, 2018.

2.12. Реймбаев Р. Музейшунослик (маъруза матни) – Нукус, 2012.

2.13. Суюнов Ш. Б. Мустақил Ўзбекистон музейларида кўргазмалар тайёрланиши технологиялари. Санъатшунослик фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2014.

2.14. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Фарғона, 2013.

2.15. Қаршибоев М., Мусурмонова О. Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари. – Т.: Маънавият, 2001.

2.16. Қорабоев У. Соатов Ғ. Ўзбекистон маданияти. – Т., 2011.

2.17. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2005.

2.18. Ўлжаева Ш. Музейшунослик (ўқув қўлланма). – Т., 2002.

2.19. Ғофуров Н., Талапов Б. Музейшунослик (маъруза матн). – Наманган, 2018.

2.20. Ҳайитов З. Маънавий мерос ва миллий ўзликни англаш // Тафаккур. – 2007. – №3. – Б. 112–113.

III. Internet ma'lumotlari:

3.1. <https://storage.kun.uz/source/uploads>.

3.2. <http://ziyonet.uz>.

3.3. www.fikr.uz.

3.4. <https://uz.m.wikipedia>.

3.5. <http://storage.museumfergana.uz/source>.